

84(5Fors) S34

Safiy, Faxriddin Ali. S34 Go'zal latifalar / Faxriddin Ali Safiy; to'plovchi va tarj. K. Qahhorova. —T.: O'zbekiston, 2009. —72 b.

Faxriddin Ali Safiy buyuk tarixchi, faylasuf va tarjimon bo'lib, undan boy adabiy meros qolgan. Uning «Go'zal latifalar» kitobidan buyuk olimlar, adiblar va shoirlar hayoti bilan bog'liq latifalar o'rin olgan.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

BBK 84(5Fors)

To'plovchi va taijimon Kibriyo Qahharova

Adabiybadiiy nashr

Faxriddin Ali Safiy

GO'ZAL LATIFALAR

LATOFAT VA ZAROFAT SOHIBI

Tarixchi, faylasuf, tarjimon va voiz Faxriddin Ali Safiy boy tarixiy va adabiy meros qoldirgan. Ayniqsa, uning hikoyatlari latif fikr va zarif mazmuni bilan kishiga huzur baxsh etadi.

Zero Ali Safiy o'z hikoyatlarining ko'pini eng ziyrak va eng iste'dodli ijodkor — xalqning o'zidan olgan va forsiy tilda yaratilgan klassik she'riyatning besh asrlik an'anasiga tayangan holda ularga sayqal bergan.

1463 yilda Sabzavorda tavallud topgan Ali Safiy katta adabiy muhit tarbiyasini olgan adib. Uning otasi Husayn Voiz Koshifiy Abdurahmon Jomiyning jiyani, o'z davrining zabardast shoiri va adabiyotchilaridan bo'lgan. U o'z farzandiga yaxshi ma'lumot berishga harakat qilgan. Darhaqiqat, Ali Safiy o'z zamonasining yetuk adibi, barcha ilmlardan xabardor, barkamol kishilardan bo'lib yetishadi.

Alisher Navoiy «Majolis unnafois» nomli tazkirasida Ali Safiyni o'zining kichik zamondoshlari qatoriga qo'yib deydi: «Mavlono Safiy — Mavlono Husayn Voizning o'g'lidir. Bag'oyat darveshvash va foniysifat va dardmand sheva yigitdir... ta'bi, xub...»¹.

U xalq orasidagi va kitoblardagi nozik fikr hamda zarif hissiyot to'liq asarlarga alohida mehr bilan qarab, ularni jamlay boshlaydi va 1532—1533 yillarda kitob holiga keltiradi.

Mavlono Faxriddin Ali Safiyning «Latoif uttavoif» («Turli toifalar latifalari») asari forstojik adabiyoti tarixida

¹ **Alisher Navoiy. Asarlar. 12tom.—Toshkent, 1966, 132bet.**

benazir hisoblanadi. Muallif bunda turli tabaqa kishilar orasidagi latifalarni yig'ib, ularga ajib shoirona zavq bilan jilo beradi.

U «Latoif uttavoid»dan tashqari «Rashahot ayn alhayot» («Hayot tomchilari»), «Ashsul orifin filmavoiz» («Pandu nasihatda oriflar do'sti»),

«Mahmud va Ayoz», «Kashf ularor» («Sirlar kashfi») nomli asarlar qoldirgan.

Ali Safiy 1533 yil Hirotda olamdan ko'z yumadi va shu yerda dafn etiladi.

Sh. Shomuhamedov ,

Filologiya fanlari doktori, professor

Bir o'rtamiyona shoir Abdurahmon Jomiyga she'rini o'qib berib:

— Shuhrat qozonish uchun shu she'rimni shahar dar vozasiga osib qo'ymoqchiman, janoblari nima deydlar? — desa, Jomiy:

— Juda yaxshi, unda bu she'rning yoniga o'zingni ham osib qo'yish kerak, bo'lmasa odamlar bu she'r seniki ekanligini qayoqdan bilishadi? — debdi.

* * *

Bir no'noq shoir Abdurahmon Jomiyga shunday debdi:

— Makkaga borgan edim, azbaroyi tabarruk bo'lishi uchun she'rlarim devonini hajarul asvad (muqaddas qora tosh)ga surtibsurrib oldim.

— Hayhay, — debdi Jomiy, — ko'p yanglish ish qilib san, asli obi zamzamga yuvib kelsang yaxshiroq bo'lur erdi.

* * *

Bir no'noq shoir Abdurahmon Jomiyga:

— Shu kecha Xati Xizrni tush ko'rdim, muborak tu puklarini og'zimga surib ketdilar, — desa, Jomiy:

— Yanglishibsan, Xati Xizr sening aftu basharangga tupurgan, sen og'zingni ochib yotganing uchun tupugi og'zingga tushgan, — debdi.

Amir Temur Fors viloyatini zabt etgandan keyin She rozga keladi. Hofizi Sheroziyni o'z huzuriga chaqirtiradi. Amir Temurga yaqin

shaxslardan biri darrov Hofizni topib keladi. Hofiz juldur kiyim kiyib, faqirona hayot kechirib yurgan ekan. Amir Temur shoirga razm solib:

— Ey Hofiz, men Buxoro bilan Samarqandni obod qilish maqsadida qilich ko'tarib olamni xarob qilib yurib manu sen bu ikkala shaharni bitta hindu xoliga bag'ishlab:

**Agar ko'nglimni band etsa o'shal Sheroz jononi Hindu xoliga
baxsh etgum Samarqandu Buxoroni, —**

deb she'r yozasanmi? — desa, Hofiz:

— Sultonim, saxiyligim tufayli shu ahvolga tushib yuribmenda! — debdi.

* * *

Kamol Xo'jandiy o'z she'rlarida «it», degan so'zni, Hasan Dehlaviy «diloromim», degan so'zni ko'p ishlatar ekan. Birov bu ikkala shoirning devonini bitta muqovaga solib, qo'ltig'iga qistirib borayotgan ekan, bir shoir:

— Hoy birodar, bu ikkala devonni bir-biridan darhol ajratib qo'y, bo'lmasa Kamol Xo'jandiyning itlari Hasan Dehlaviyning diloromini yeb qo'yadiya! — debdi.

* * *

Bir kuni shoir Anvariylar bozorini aylanib yurgan ekan, bundoq qarasa, birov uning she'rini baland tovush bilan o'qimoqda, atrofdagilar unga tahsin va ofarin ayt moqda ekan.

Anvariylar yaqinroq borib:

— Birodar, kimning she'rini o'qiyapsan? — deb so'rabdi.

Haligi odam:

— Anvariylarning she'rini, — debdi.

— Anvariyni taniysanmi?
— Nima edi? Anvari o'zim boiaman! — debdi haligi kishi.
— Yo tavba, — debdi Anvari kulib, — she'r o'g'risini
eshitgan edim, ammo shoir o'g'risini birinchi ko'rishim.

* * *

Bir kuni shoir Binoiy Amir Alisherning oldiga kelibdi. Amir Alisher chodirdan:

— Kim keldi? — deb so'rasa,
— Binoiy, — deb javob berishibdi.
— Ko'p yaxshi bo'ldi kelganingiz, — debdi Alisher, — biror kishi
bo'lsa ozgina masxarabozlik qilardik, deb o'tirgan edik.
— Biz ham aynan shu niyatda keldik, taqsir, — debdi Binoiy.

* * *

To'qimtabiat bo'lsa ham shoirlik da'vo qiladigan shah zodalardan biri Jomiyning bir g'azaliga nazira yozib, o'qib bergandan keyin:

**Baski dar joni figoru chashmi bedoram to'yi, Harki paydo meshavad
az dur pindoram tuyi, —**

ya'ni: afgor bo'lgan jonim bilan uyqusiz ko'zimdan sira ketmaganing
uchun uzoqdan kimni ko'rsam sen deb o'ylayman, deb yozibsiz. Bordiyu
uzoqdan ko'zingizga sigirmi yo eshak ko'rinsachi? — desa, Jomiy:

— Baribir, o'shanda ham sen deb o'ylayman, — deb javob beribdi.
* * *

Jomiy Hijozga qilayotgan safari vaqtida Simnonda to'xtabdi.
Simnonda tamg'ochilar uning karvonini ag'dar to'ntar qilishibdi: «ba'zi bir
narsalarni bizdan yashirish niyatida shalvoringiz ichiga berkitgan ekansiz,
ruxsat etsan giz shalvoringiz ichini ko'rsak», — desa, Jomiy:

— Marhamat, shalvorim ichida nima bo'lsa hammasi siz larniki! — debdi.

* * *

Amir Alisher o'zi uchun bir nechta sag'ana qurdirgan ekan. Biri Rizoviyaning muqaddas bog'ida, ikkinchisi Xoja Abdulloh Ansoriyning mozorida, uchinchisi mavlono Sa' daddin Qoshg'ariyning mozorida, to'rtinchisi, o'zi soldir gan Jome' masjidining yonida. Bu xabar Jomiyning qulog'iga yetibdi va Jomiy sag'analarni sanab:

— Qani, so'rab ko'ringlar, Mir Alisher qay birini xush laydilar? — debdi.

* * *

Mirzo Ulug'bek zamonida Abdurahmon Jomiy bir muncha vaqt Samarqandga kelib turgan ekan. O'sha kunlari Kobuldan Samarqandga Xokiy taxallusli xushqaddu qomat, xushfe'l, xushta'b va hoziijavob bir yigit ham kelgan ekan. Bir kuni Xokiy uchto'rtta ahli ilm bilan choyxonada suh bat qurib o'tirgan ekan, shu chog' Jomiy o'z do'stlari bilan uning oldidan o'tib qolibdi. Shunda Xokiy hazil tari qasida Jomiyga qarab:

— Yo'l bo'lsin Xuroson eshaklariga? — desa, Jomiy:

— Ag'anagani yumshoqroq xok — tuproq qidirib bor yapmiz, — debdi.

* * *

Shoir Lutfiyni Boysunqur Mirzo tarbiyalab voyaga yetkizgan ekan. Lutfiy bir kuni mavlono Muzaffar Hira viyning «bog'» radifli qasidasiga chiroyli javob yozib, Mirzo Boysunqurga tortiq qilibdi. Mirzoga bu javob yoqibdi va uning «saroy» radifli qasidasiga ham javob yozishni buyuribdi. Shunda Lutfiy:

— Awal ko'raychi, uning bog'idan qandoq meva yer kanman, ana undan keyin saroyiga qadam qo'yaman, — debdi.

Mirzo kulib unga katta in'om beribdi.

Shoirlardan bin Jomiyga:

— Kamol Xo'jandiy bilan Xo'ja Hoflzning devoni hamda Amir Alisherning yuz kalima she'riga javob yozdim, — desa, Jomiy:

— Buku yaxshi, endi xudoga nima javob berasan? — debdi.

* * *

Bir shoir xasis bir boyni maqtab qasida yozibdi va boyga o'qib beribdi. Oradan biror hafta o'tibdi, ammo boy hech qanday iltifot ko'rsatmabdi. Shoir yana in'om kutib qit'a yozibdi. Yana boydan sado chiqmabdi. Bir muncha vaqt o'tgandan keyin noumid bo'lib qolgan shoir boy haqida hajviya yozibdi. Bu gal ham boy iltifot qilmabdi. Noiloj qolgan shoir boyning eshigi oldiga kelib cho'kkalab o'tiribdi. Boy tashqari chiqsa, shoir ostonada bamaylixotir o'tirgan ekan.

— Ha, oriyatsiz maxluq, — debdi boy, — maqtading, indamadim, tama qilib qit'a yozding, parvo qilmadim, hajviya yozding, o'zimni bilmaganlikka soldim, endi nima umidda eshigimda o'tiribsan?

— O'lsang birato'la marsiyani ham o'zim yozay degan umidla o'tiribman! — debdi shoir.

* * *

Bir boy kasal bo'lib uzoq vaqt yotib qolibdi. Uning bir shoir do'sti bor ekan, qaysi bir sabablar bilan kasal ko'rgani kelmabdi. Boy tuzalib, oshnasi bilan ko'rishgan da, gina qilib:

— Shuncha vaqt ko'rpato'shak qilib yotdim, birrov kelib ko'rmading, — desa, shoir:

— Kechir, do'stim, men marsiya yozish bilan band edim! — debdi.

Bemaza va tuturiqsiz she'rlar yozib yuradigan bir shoir tabib oldiga kelib:

— Bir narsa yuragimni behuzur qilib, kayfiyatimni buzyapti, qutulishning iloji yo'qmikin? — deb so'rabdi. Tabib gapga chechanlardan ekan, so'rabdi:

— Aytchi, shu kunlari qog'ozga tushirmagan va hali birovga o'qib bermagan she'ring bormi?

— Ha, bor, — debdi shoir.

— O'sha she'ringni o'qib ber.

Shoir o'qib beribdi.

— Yana bir karra o'qi.

Shoir yana takrorlabdi.

— Tur o'rningdan, endi najot topding, — debdi tabib, — yuragingni behuzur qilib, kayfiyatingni buzib turgan narsa shu she'r edi, yuragingdan chiqarib tashlaganingdan keyin qutuldingqolding!

* * *

Shoir Sal'abiy xalifa Mansur poytaxtining shoirlaridan ekan. Uning haqida shundoq bir voqeani naql qilishadi:

Bir kuni shoir Sal'abiy katta in'om umidida bir qasida yozib, xalifa huzuriga olib boradi va unga o'qib beradi. Qasida xalifaga juda ma'qul tushadi va shoirdan:

— Qani aytchi, bu qasidang uchun senga uch yuz dinor oltin beraymi yo har biri yuz dinor oltinga arziydigan uchta hikmatli so'z o'rgataymi? — deb so'raydi. Shoir xu shomadgo'ylik qilish niyatida xalifaga:

— Sarf bo'lib ketadigan ne'matdan ko'ra boqiy qoladigan hikmatli so'z afzalroq, janobi oliylari, — deydi.

— Birinchi hikmatli so'zim shuki, — deydi xalifa, — to'ning eskirsa, yangi etik kiyma, ko'zga xunuk ko'rinadi.

— Oh, essiz yuz dinor, — deydi shoir.

Xalifa miyig'ida kulib:

— Ikkinchi hikmatli so'zim shuki, soqolingga moy surganida ehtiyot bo'l, iyagingga tegmasin, bo'lmasa yoqang kir bo'ladi.

— Hay attang, ikki yuz dinor qo'ldan ketdi, — deydi shoir.

Xalifa jilmayib:

— Uchinchi hikmatli so'zim shuki... — deganida shoir bor tovushi bilan faryod chekadi:

— Ey janobi oliy, Xudo haqi, uchinchi hikmatli so'zni saqlab qo'yib, qolgan yuz dinorni bera qoling, bu hikmatli so'zdan ko'ra o'sha menga ko'proq zarur...

* * *

Bir podshoh mulozimlaridan biriga shahardagi ahmoq larning otini birmabir yozib chiqishni buyuradi.

— Shart shuki, — deydi mulozim, — kimning ismini yozish mening ixtiyorimda, sen bu ishga aralashmaysiz.

Podshoh bu shartga ko'nadi. Mulozim birinchi qilib podshohning ismini yozadi.

— Mayli, — deydi podshoh, — agar ahmoqligimni is botlab bersang, hech nima demayman.

— Sen falon mulozimingga falon shaharga borib, falon kishidan yuz dinor pulimni undirib kel, deb, yorliq berding. Men o'sha odamni taniyman, bu yerda uning na uyjoyi va na bolachaqasi bor. O'sha odam o'sha pulni undirib, sening hukming o'tmaydigan boshqa biror elga ketib qolsa, sen nima deysan?

— Omonatga xiyonat qilmay o'sha pulni undirib kelsa, sen nima deysan?

— Unda ahmoqlar ro'yxatidan sening nomingni o'chirib, o'sha odamning nomini yozib qo'yaman.

* * *

Ayyub arab xalifasi Mansurning mulozimlaridan ekan. Lekin har gal xalifa uni chaqirtirsa, rangquti o'chib, a'zoyi badanini titroq bosarkan. Bir kuni xalifaning mahramlaridan biri uning bu holini ko'rib:

— Senku, xalifaning eng aziz mulozimi, hamsuhbati, hamtovog'i bo'lasan, uning huzurida hech kimning senchalik obro'e'tibori yo'q. Nega endi har daf a seni yo'qlasa, o'zingni yo'qotib, sarosimaga tushib qolasan?

Ayyub marhamning savoliga javoban shu hikoyani naql qilib beribdi:

Bir kuni burgut xo'rozdan so'rabdi:

— Senku, jo'jaligingdan odamlar orasida yashab kel gansan, ular senga o'z qo'llari bilan don, suv berishadi, o'z uylari yonidan senga katak qurib berishadi. Nima uchun har gal oldingga kelib seni ushlamoqchi bo'lishsa, tutqich bermasdan, qoqog'lab u uydanbu uyga, bu tomdanu tomga uchib ketasan? Mana men esam bir yirtqich qushman, tog'u toshlar orasida maskan qurganman. Ammo odamlar meni ushlashsa, qo'llarida orom olaman, ovning ketidan yuborishsa, sekinasta qanot qoqishimga qaramas dan, o'ljani olib kelaman, hech qachon odamlardan qoch mayman, dodfaryod ko'tarmayman.

Xo'roz so'rabdi:

— Aytchi, umringda burgutni sixga tortib o'tda tobla ganlarini ko'rgan va yo eshitganmisan?

— Yo'q!

— Bo'lmasa tingla: men shu dargohda esimni tanibman ki, yuzlarcha xo'rozning kallasini kesib, patini yulib, qornidan sixga o'tqazib, o'tda toblab yeganlarini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Mening qoqoq'lab dod ko'tarishimning boisi ham shudir.

* * *

Abbosiylar sulolasining sakkizinchi xalifasi bo'lmish xalifa Mo'tasim huzuriga birov kelib payg'ambarlik da'vo qilibdi. Undan:

— Payg'ambar bo'lsang, qanaqa mo'jiza ko'rsata ola san? — deb so'rashsa, u:

— O'likni tiriltiraman, — debdi.

— Bo'пти, — debdi xalifa, — agar shu ish qo'lingdan kelsa, men senga imon keltiraman.

Xalifaning buyrug'i bilan unga o'tkir qilich keltirib berishibdi.

— Hoy xalifa, — debdi haligi kishi, — hozir sening ko'z oldingda vaziringni kallasini tanidan judo qilib, o'sha ondayoq qayta tiriltiraman.

Xalifa rozi bo'libdi va vazirga qarab:

— Sen nima deysan? — deb so'rabdi.

— Ey shahriyori olam, — debdi vazir, — men undan hech qanaqa mo'jiza ko'rsatishni so'ramayman. Sen guvoh bo'l, men shu ondayoq, hech qanday mo'jizasiz unga imon keltiraman.

* * *

Bir kuni abbosiylarning beshinchi xalifasi Horun ar Rashid qabristondan o'tib ketayotganda qarasa, ikki maj nunsifat — Bahlul bilan Ulayyo qabristonda suhbatlashib o'tirishar ekan. Horun arRashid ularga tegishmoqchi bo'lib oldiga chaqirtiribdi va shunday debdi:

— Bugun devonalarni o'ldiradigan kun. Qani, chaqir jallodni!

Jallod ham darrov hozir bo'libdi va Ulayyoni yotqizib bo'g'ziga shamshir tortmoqchi bo'libdi.

— Ey Horun, nima qilmoqchisan? — debdi Bahlul.

— Devonalarni o'ldirmoqchiman, dedimku, — debdi Horun.

— Subhonollo! — debdi Bahlul, — bu shaharda biz ikki ta devona edik, endi uchta bo'ldik. Sen bizni o'ldirsang, unda seni kim oidiradi?

* * *

Bir kuni sulton Mahmud shifoxonaga borgan ekan, qarasa, bir devonani zanjirband qilib qo'yishibdi. Devona podshohni ko'rgach, hiringlab kulaveribdi.

— Ha, devona, nega kulyapsan? — deb so'rasa:

— Senga kulaman, — debdi devona, — sen podsho bo'lib mag'rurlikdan boshqa narsani bilmading. Na umringda biror savob ish qilding va na odob ko'chasidan o'tding.

— Tila tilagingni, nima istaysan? — debdi sulton Mahmud.

— Ozgina xom dumba bo'lsa yer edim, — debdi devona.

Sulton Mahmudning amriga ko'ra dumba o'rniga turpni archib berishibdi. Devona turpni chaynab, hadeb bosh chay qayveribdi.

— Ha, nega bosh chayqaysan? — deb so'rasha:

— Sen podsho bo'lgandan keyin dumbada yog' qolmabdi, — debdi devona.

Shunda sulton Mahmud:

— Ha, haq gapni devonadan eshit, deganlari rost ekan, — debdi.

* * *

Bir kuni xalifaning vaziri Bahlulga:

— Qutlug' bo'lsin, xalifa lutfu marhamat ko'rsatib, seni ayiqlar bilan to'ng'izlarga hokim qilib tayinlaydi, — debdi.

— Bo'lmasa hushyor bo'lib, qadamingni bilib bos, chun ki sen ham mening fuqarom bo'lib qolibsana, — deb javob beribdi Bahlul.

* * *

Bir devonadan:

— Nega namoz o'qimaysan? — deb so'rasalar:

— Yerni shuncha yil oyog'im bilan tepganim kifoyadir, endi boshim bilan ham toptaymi? — debdi.

* * *

Bir devonadan:

— Seni yaratgan xalloqni taniysanmi? — deb so'rashsa, shundoq javob beribdi:

— Aqlimni g'orat qilib, meni hamisha ochyalang'och qoldirgan va shahar bolalariga umrbod masxara qilib qo'ygan zotni nechuk tanimayin?!

* * *

Bir sodda ninasini uyda yo'qotib, uni ko'chadan qidirib yurgan ekan.

— Nimani qidirib yuribsan? — deb so'rashsa, u:

— Uyda yo'qotgan ninamni, — deb javob beribdi.

— Ey sodda, uyda yo'qotgan ninangni ko'chadan qidi rasanmi? — deyishsa:

— Nima qilay, uyim qorong'i bo'lsa, — degan ekan.

* * *

Bir sodda kimki arafa kuni ro'za tutsa, bir kunlik ro'zasining savobi bir yillik gunohini yuvadi, degan gapni eshitib, arafa kuni ro'za tutibdi. Yoz fasli, havo nihoyatda issiq, kun uzun ekan, sabri chidamay nima bo'lsa bo'ldi, deb ro'zasini buzib, ovqatni uribdi. Bu holdan xabar top gan odamlar:

— Senga nima bo'ldi, ro'zangni nega yeding? — desa, sodda shundoq debdi:

— Bir kun ro'za tutganimda xudo bir yillik gunohimni kechirar ekan. Hozircha yarim yilini kechirsa bo'lar, chala siga qarzdorman.

* * *

Bir yahudiy musulmon dinini qabul qilibdi va shunda domlaimom:

— Bolam, endi onadan yangi tug'ilganday, ya'ni gunohdan pok bo'lding, — debdi.

Olti oydan keyin hammahallalari:

— Bu namoz o'qimaydi, — deb uni domlaimomning oldiga sudrab kelishibdi.

Domlaimom:

— Nega jamoat namoziga kelmaysan? — deb so'rasa, hali gi odam:

— Ey domla pochcha, musulmon diniga kirganimda: «Onadan yangi tug'ilganday bo'lding» degan edingiz. O'shan ga bo'lgan bo'lsa olti oy bo'lgandir, olti oyli bola namoz o'qisin, degan gap qaysi kitobda yozilgan? — debdi.

Xunuk va so'xtasi sovuq bir savdogarning go'zal va dil kashlikda tengi yo'q xotini bor ekan. Bir kun xotin eriga:

— Begim, ikkalamiz ham jannatga borsak kerak, — debdi.

— Qayoqdan bilding, malikam? — deb eri so'rasa, xotini shunday javob beribdi:

— Shundan bilamanki, sen mening husnu jamolim va qaddu kamolimga qarab hamisha xudoning berganiga shu kur qilasan, men esa sening aftu angoring va shaklu sha moyilingga qarab sabru toqat qilaman. Xudoning berganiga shukur qiladigan va sabru qanoat qiladigan odamlarning joyi jannatda bo'ladi, deb eshitganman.

Burni dastmol qovoqqa o'xshagan bir kishi uylanmoq chi bo'lib, sovchilikka boribdi.

— Men nihoyatda sabrbardoshli odamman, har qancha og'irlik bo'lsa ko'tara olaman, — deb o'zini maqtabdi.

— Gaping rost, — debdi ayol, — sabrqanotli bo'lma ganingda va har qanaqa og'irlikni ko'tara olmaganingda bu burunni qirq yil qanday ko'tarib yurar eding?

* * *

Jo'hiy¹ aftu basharasi kuydirilgan kallaga o'xshagan odam ekan. Bir kuni bozorboshiga chiqib o'tirgan ekan, bir ayol kelib unga tikilib qolibdi.

Jo'hiy suyunib:

— Ha, otincha, meni tanib qoldingizmi? — deb so'rasa, ayol shunday debdi:

— Ko'zlarim nihoyatda gunohi azim qilib qo'ygan va men o'sha gunohga yarasha azob qidirib yurgan edim. Bunday razm solib qarasam, sening xnnuk aftu basharangga tikilib qarashdan bo'lak og'ir jazo bo'lmasa kerak.

* * *

Bir hazilkash machit yonidan o'tib ketayotgan ekan, qarasa odamlar namoz o'qigani ichkariga kiryapti. U ham darrov machitga kirib imomning orqasiga borib turibdi. Imom birpasda namozni tugatib, salom beribdi. Shunda haligi kishi imomga qarab:

— Taqsir, siz namozda nimalarni o'qidingiz? Men hech narsa o'qimasdan shuncha harakat qildimu sizga yetolma dim, — debdi.

* * *

So'fi «o!lohu akbar», degandan keyin hamma shosha pisha machitga kirib, oldingi safga o'tishga harakat qilibdi. Bir hozirjavob odam ham shu yerda ekan, bu holni ko'rib:

— Agar so'fi «hayya alas salot»² deyish o'rniga «haya alas zakot»³ desa, men aminmanki, hamma orqasiga qara may machitdan chiqib qochar edi, — debdi.

¹ Jo'xiy — arab latifalarinipg qahramoni — Afandisi.

² Namozga turinglar.

³ Zakot beringlar.

* * *

Bir faylasuf sahroda aylanib yurgan ekan, qarasa, bir yigit merganlikni mashq qilish niyatida, o'q otmoqda va otgan o'qlari nishonga yetmasdan o'ngso'lga ketmoqda ekan. Faylasuf, o'q tegishidan qo'rqib, nishonning oldigi nasiga borib turibdi va shundoq debdi:

— Shu yerdan xavfsizroq joy yo'qqa o'xshaydi, chunki uning o'qi hech qachon nishonga tegmasligiga aminman.

* * *

Bir dindor kishi xaloyiqqa qarab:

— Birodarlar, bu yil ramazon bizdan rozi bo'lib ketdi miyo'qmi? — deb so'rasa, bir hazilkash!

— Rozi bo'lib ketdi, — debdi.

— Rozi bo'lib ketganini qayoqdan bilding? — deb so' rashsa, u:

— Agar rozi bo'lmagan bo'lsa, kelasi yil qaytib kel maydi, — debdi.

* * *

Bir darvish xasis boyning eshigiga borib:

— Ikkalamiz ham bir otaonadan, ya'ni Odam Ato bilan Momo Havodan tug'ilganmiz. Akauka bo'lganimizdan keyin sen mening tegishimni berishing kerak, — debdi.

Boy darrov g'ulomini chaqirib:

— Bunga bir chaqa chiqarib ber! — debdi.

— Hoy xo'jam, — debdi darvish, — nega merosni teng bo'lmaysan?

— Uningni chiqara ko'rma, — debdi boy, — boshqa aka ukalaring eshitib qolsa, shundan ham mahrum bo'lib qolasan.

* * *

Bir arabdan:

- Issiq sho'rvani arablar nima deyдилar? — deb so'rashgan ekan, u:
- Sahun, — deb javob beribdi.
- Sovuq sho'rvani nima deyдилar?
- Biz sovigani qo'ymaymiz, shuning uchun unga nom ham qo'yganimiz yo'q, — debdi.

* * *

Uchto'rt ezma bir ulug' zotni ko'rgani borib, uzoq o'tirib qolibdi. Bu narsa bemorga ancha malol kelibdi. Ke tayotgan chog'da ular bemorga:

- Vasiyating bo'lsa, bizga aytib qo'ya qol, — deyishsa, bemor:
- Vasiyatim shuki, — debdi, — bundan keyin kasal ko'rgani borganlaringda uzoq o'tirib bemorni toliqtirib qo'y manglar.

* * *

Bir faylasuf gunohlaridan tavba qilibdi va o'sha ondayoq soqolini qirdirib tashlabdi.

- Bu nima qilganing? — deb so'rashsa, u:
- Soqolim gunoh ishlar qilib yurgan kezlarimda o'sgan edi, shuning uchun yo'qotib yubordim, — deb javob beribdi.

* * *

Bir sodda shunday hikoya qiladi:

- Naqqosh huzurida tortgan xijolatim umr bo'yi yodim dan chiqmaydi. Bir kuni bir ayol oldimga kelib:
- Bir hojatim bor, shuni chiqarsang, ko'p minnatdor bo'lar edim, — deb qoldi.
- Qanaqa hojat, — deb so'rasam, shundoq dedi:
- Lutfan bozorboshigacha men bilan birga borsang.
- Uning taklifiga ko'ndim. Ayol meni rassomning do'koni

ga boshlab bordi va unga: «Aynan shundoq», degan so'zini aytdiyu o'zi ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Rassom menga qarab tirjaydi. Men hech narsaga tushu nolmay, angrayib qoldim.

Nihoyat aqlhushimni yig'ib rassomdan:

— O'zi nima gap? — deb so'radim. Rassom shunday dedi:

— Ko'pdan beri bu ayol, qancha pul olsang olginu menga shaytonning suratini chizib bergin, deb iltimos qilib yurar edi. Men har gal unga, shaytonni ko'rmagan bo'lsam, suratini nechuk chizib beraman, deb vajkarson qilib yuruv dim. Ayol, mayli, unday bo'lsa o'zim shaytonga o'xshagan basharani topib kelaman, degan edi. Hozir shu maqsadda seni boshlab kelibdi.

Bu so'zni eshitib shunchalik o'sal bo'ldimki, yer yoril madiyu kirib ketmadim.

Birov xunukkina xotinga uylangan ekan, xotini eridan:

— Qarindoshurug'laring juda ko'p ekan, qaysi biridan yuzimni berkitishni bilmay qoldim, — desa, eri:

— Faqat mendan berkitsang kifoya! — debdi.

* * *

Bir yasovulning go'zallikda timsoli yo'q xotini bor ekan. Uning ismi jismiga munosib Hur ekan.

Yasovul urushga borib mag'lubiyatga uchragandan keyin orqasiga qaramay qochibdi.

— Hoy nomard, qayt orqangga! Dushmanni o'ldirsang g'oziy bo'lasan, agar dushman seni o'ldirsa, shahid bo'lib, qiyomat kuni hurlarga qo'shilib ketasan, — deyishipti. Shunda yasovul:

— Mening hurim o'z uyimda, boshqa hur uchun esa o'lishni istamayman! — debdi.

* * *

Bir boy tovushi yoqimli va'zxonga ko'zsiz oltin uzuk berib:

— Mulla, minbarga chiqqanida mening haqimga duo qilgin, — deb iltimos qilibdi. Va'zxon minbarga chiqib:

— Xudoyo xudovando boy bobomga arshu a'lodan shundoq bir qasr ato qilginki, uning shifti bo'lmasin, — debdi.

Va'zxon minbardan tushgandan keyin haligi boy uning oldiga borib:

— Mulla, mening haqimga g'alatiroq duo qildingku? — deb so'rasa, mulla shunday javob beribdi:

— Boy buva, in'om qilgan uzugingizning ko'zi bo'lgan da, arshu a'lodan so'ragan qasringizning ham shifti bo'lur edi.

* * *

Bir arab guvoh tariqasida qozixonaga borgan ekan, da'vogar uning guvohligini rad etish maqsadida:

— Taqsir, bu arab shuncha moldavlatli odam bo'la turib umrida biror marotaba haj qilib, zakot bergani yo'q. Shunday odamning guvohligini qabul qilib bo'larmikin? — desa, arab:

— Bekor aytibsan, men falon vaqtda haj qilib, barcha rasmlarimni bajo keltirganman, — debdi.

— Agar gaping rost bo'lsa, — debdi qozi, — aytchi, zamzam qayerda?

— Zamzam qayerda bo'lar edi. Zamzam har doim ara fotning eshigida turadigan nuroniy cholda.

— Ey johil, — debdi qozi, — zamzam quduq, undan suv oladilar. Arafot — eshigi ham, devori ham yo'q qip yalang'och cho'l.

— Bo'lsa bordir. Ammo men ziyoratga borgan chog'imda zamzam hali cho'kib ketmagan, arafot ham eshik devori hali buzilmagan va cho'lga aylanmagan yaxshigina bog' edi, — debdi arab.

* * *

Xalifaning yaqinlaridan biri Bahlulga:

— Bu yerda nima qilib o'tiribsan? Tur, xalifa Horun ar Rashidning vaziri huzuriga bor. Har bir devonaga besh dirhamdan ulashyapti, — desa, Bahlul:

— Gaping rost bo'lsa o'zing yugura qol, senga besh dirham emas, o'n dirham beradi, — debdi.

* * *

Tuyasini yo'qotgan bir arab, kimki tuyamni topib kel sa, ikkita tuya hadya qilaman, deb ko'chada jar solib yurgan ekan.

— Bu qanaqa bo'ldi, foydangdan zararing kattaku, — deb so'rashsa, shunday debdi:

— E, birodar, sizlar yo'qotgan narsaning topilganidan oladigan lazzatni bilmaysizlar!

Bir sodda ramazonning 27sida osmonga qarasa, oyning rangi oqarinqirab, ingichka bo'lib qolibdi.

— Xudoyimdan o'rgilay, — debdi sodda, — sen mening qornimni ichkariga kirgizib, sillamni quritib qo'ygan eding, mana endi xudo ham sening joningni olib, jismingni o'roqday qilib qo'yibdiku!

* * *

Bir odamni dinsizlikda ayblab, xalifaning huzuriga olib kelishibdi.

Xalifa haligi odamdan:

— Seni dinsiz, xudodan qaytgan deyishadi, rostmi? — deb so'rabdi.

— Yo'q, — debdi haligi odam, — men besh vaqt na mozni tark qilmaydigan, toatibodatni o'z vaqtida ado eta digan mo'minmusulmon bandalardan bo'laman.

— Mayli, — debdi xalifa, — dinsizligingga iqrор bo'lma guningcha men seni kaltaklayman!

— Juda g'alati bo'ptiku, — debdi haligi kishi, — hazrati Muhammad Mustafо sallovlohu alayhu vassalom musulmon bo'lgин deb, qilich tortgan edi, sen zamonning xalifasi va mo'minmusulmonlarning amiri bo'la turib dinsizlikka iqrор bo'lgин, deb meni kaltaklamoqchimisan?

* * *

Bir kuni bir guruh dehqonlar xalifa Ma'mun arRa shidning huzuriga kelib, uning zolim amaldoridan shikoyat qilishadi.

Xalifa ularning arzini eshitgach, shundoq deydi:

— Mening qo'l ostimdagi amaldorlarim orasida adolat va insof bobida undan o'tadigani yo'q. Uning a'zoyi badani adlu insofdan iborat.

Dehqonlar orasida sho'xroq bir kishi bor ekan, bu so'zni eshitgach, shunday deydi:

— Xalifam, undоq bo'lsa uning a'zolaridan bittabitta kesib, boshqa viloyatlarga ham yuboring, toki sizning hukmingiz ostidagi shaharlar aholisi ham adlu insofdan bahramand bo'lib, rohatfarog'atda yashasin.

* * *

Bir hakimdan:

— Ovqatni qay mahalda yegan ma'qulroq? — deb so' rashsa, u:

— Boyning qorni och qolganda, kambag'al ovqatga yetganda, — debdi.

* * *

Sharob ichmaydigan bir hakimdan:

- Nega siz may ichmaysiz? — deb so'rashsa, shunday debdi:
- Men aqlimni yeydigan narsadan hazar qilaman.

* * *

Bir podshoh azon payti ovga chiqqan ekan, tasodifan so'xtasi sovuqroq bir kishiga ro'baro' kelib qoladi va ovi baror topmaydi. Buni o'sha sovuq basharaning kasofati deb biladi va darhol o'sha odamni topib jazo berdirtiradi. Nima bo'lib, peshindan keyin ovi baror topib, yaxshi kayfiyat bilan ovdan qaytadi. Ertalab bir bechorani sababsiz xafa qilgani esiga tushib darhol uni toptiradi va qilgan gunohi uchun uzr so'rab, unga zarbof to'n va ming dirham oltin hadya qilmoqchi bo'ladi. Kaltak yegan kishi podshohga shunday deydi:

— Ey shahriyori olam, menga hech qanaqa to'n ham, pul ham kerak emas. Agar ruxsat bersang, ikki og'iz gapim bor, shuni aytaman.

Podshoh ruxsat beribdi. Haligi kaltak yegan odam shunday debdi:

— Ertalab sening birinchi ro'baro' kelgan odaming men, mening ham birinchi ro'baro' kelgan odamim sen eding.

Sening oving baroridan kelib, butun kuning ayshu ishratda o'tgan bo'lsa, mening butun kunim ranju mehnatda o'tdi. Endi o'zing insof bilan aytginchi, qaysi birimiz xosiyatsiz odam ekanmiz?..

* * *

Bir hozijjavob kishini gunohkor qilib podshoh oldiga olib kelishadi. Gunohi bo'yniga qo'yilgandan keyin podshoh:

— Bu beti qoraning burnini teshinglar! — deb amr qiladi. Shunda haligi kishi:

— Ey dini islomning shohi, burnimning ikkita teshigi bor, shu yetar, uchinchisiga na hojat? — debdi.

* * *

Bir kuni Sulton Mahmud Talhakdan xafa bo'ladi va unga do'qpo'pisa qilmoqchi bo'lib, g'ulomlaridan biriga:

— Bor, bog'dagi arg'uvon daraxtidan besholti novda kesib kel, men buning adabini berib qo'yay! — debdi.

G'ulom kaltak kesib kelgani boqqa qarab yuguribdi. Tal hak chordana qurib, tepasida tikka turgan odamlarga:

— Qani, kelinglar, bekor o'tirmaylik, kaltak kelguncha kallajang qilib turaylik! — debdi.

* * *

Bir kuni Talhak tomonidan katta gunoh sodir bo'ladi. Sulton uni o'limga hukm qiladi va ko'z oldida kallasini tanasidan judo qilishni buyuradi. Jallod qilichni yalan g'ochlab, yonida shaylanib turadi. Talhak esa yalang'och tig' ostida dirdir qaltiraydi, chunki sultonning shafqatsiz va adolatsizligini bilardi. Shu yerda o'tirgan nadimlardan biri Talhakka qarab:

— Hoy, nomard, sal o'zingni qo'lga olsang bo'lmaydi mi? Hamma ham bir kuni kelib, bir kun ketadida! — debdi.

Talhak bunga javoban:

— Qani, mard bo'lsang mening o'rnimga kelib o'tir, men sening ahvolingni bir tomosha qilay! — debdi.

* * *

Bir kuni, yoz faslida, Sulton Mahmudni pashshalar talayverib jonidan bezor qilibdi. Sulton, jonida jon qol may, Talhakdan:

— Pashsha bo'lmaydigan biror joy yo'qmikin? — deb so'radi.

— Odam bor joyda pashsha bo'ladi, odam bo'lmagan joyda pashsha bo'lmaydi, — debdi Talhak.

— Odam ham, pashsha ham bo'lmaydigan joyni topib bo'lmasmikin?
— debdi sulton Mahmud.

— Bu amri mahol, — debdi Talhak.

— Agar shundoq joy topilsachi? — debdi sulton.

— O'z qonimni sultonga bag'ishlayman, — debdi Talhak. —
Bordiyu, mening gapim to'g'ri chiqsa, sulton nima deydilar?

— O'n ming dinor oltin beraman, — debdi sulton. Shu shart bilan
sulton Mahmud o'z mulozimlarini olib,
shahardan tashqari chiqishibdi. Ancha yo'l bosgandan keyin sira odamzod
qadami yetmagan bir sahroga yetishibdi. Sulton otining jilovini tortib
to'xtabdi. Mulozimlar ham shu on saf tortishibdi. Birpasda
pashshalarpaydo bo'libdi. Sulton Talhakka qarab:

— Ana, ko'rdingmi pashshani! Vaholanki bu yerga inson qadami
yetgan emas, — debdi.

Bunga javoban Talhak:

— Siz o'zingizni odam hisoblamasligingiz mumkin,
ammo men odamman, odamzodman! — debdi.

* * *

Abulayno degan bag'dodlik bir hozirjavob bilan misrlik hozirjavob lbni
Mukarram bir hakimning ziyofatida shi virlashib yonmayon o'tirishgan
ekan. Hakim:

— Ha, yana nima yolg'onyashiq gaplarni to'qib o'tirib sizlar? — deb
so'rasa, ular:

— Sizning madhingizni qilib o'tiribmiz, — deb javob berishibdi.

* * *

Hoji Mahmud Shahob Amir Temurga vazir bo'lgan ekan. Temur
vafotidan so'ng o'z mahallasining eskirib, xarobaga aylangan machitini

qayta tiklamoqchi bo'libdi. Shu niyatda besholtita kambag'alni olib kelib devorlarni buzayotgan ekan, ko'chadan o'tib ketayotgan bir hozirjavob kishi osmoni falakka ko'tarilayotgan changto'zonni ko'rib:

— O'zi nima gap? — deb so'rabdi. Hoji Mahmud ma chitning devorini buzyapti, deb javob berishipti.

— Yo alhazar, — debdi haligi odam, — Amir Temur hayotligida musulmonlarning uyini buzar edi, amir o'lga nidan keyin xudoning uyini buzadigan bo'ptida!

* * *

Umar Abdulaziz qazo qilibdi. Dafn vaqtida Abdumalik degan o'g'li mundoq qarasa biron chap qo'lini siltab ga pirayotgan emish. Abdumalik:

— Hoy birodar, nega chap qo'lingni ko'tarib gapiryap san? — desa, haligi odam:

— Shundoq musibat boshiga tushgan chog'da o'ng qo'ldan chap qo'lni ajratib turgan odamni umrimda ko'rganim yo'q! — debdi.

* * *

Biron Jo'hiyni qozixonaga olib borib, undan o'n dirham da'vo qilibdi. Jo'hiy munkir bo'libdi. Qozi da'vogardan guvoh talab qilsa, da'vogar:

— Guvohim yo'q, — debdi.

— Bo'lmasa qasam ich, — debdi qozi.

— Men uning qasamiga ishonmayman, — debdi da'vogar.

Shunda Jo'hiy:

— Ey musulmonlarning qozisi, bu shaharda sizdan diyo natli va e'timodli odam yo'q. Modomiki u mening qasa mimni inobatga olmas ekan, men uchun o'zingiz qasam icha qoling, shoyad shu bilan bu da'vogarning ko'ngli joyiga tushsa, — debdi.

* * *

Birov qozining oldiga da'vo bilan boribdi. Qozi undan guvoh talab qilibdi. Da'vogar bir hazilkash odamni guvohlikka olib kelibdi. Qozi undan:

- Biror narsa bilasanmi? — deb so'rasa, hazilkash:
- Shuncha ko'p narsa bilamanki, aytib ado qilib bo'lmaydi, — debdi.
- Qur'onni bilasanmi? — desa, hazilkash:
- Balle, o'n marotaba xatm qilganman, — debdi.
- Yuvg'uchilik qilganmisan? — so'rabdi qozi.
- Yuvg'uvchilik otabobomning kasbu kori.
- O'likni yuvib, kafanlab tobutga solganda nimani o'qiysan?
- Ajab bo'ldi, o'ldingqutulding. Endi seni hech kim qozining oldiga sudrab ham bormaydi, guvohlik berishingni ham keragi bo'lmaydi, deyman.

* * *

Bir hazilkash boshqa bir hazilkashning uyiga mehmon bo'lib borib, uch kechayu uch kunduz qolib ketibdi. Mezbon mehmondan to'yib xotiniga:

- Bu surbet tekinxo'r qachon ketarkan? — desa, xo tini:
- Men hozir kirib, yo'lini qilaman, — debdi va meh monning oldiga kirib:
- Inim, uch kundan beri rizqingizni biznikidan ber gan xudoyim ertaga boshqa xonadondan berar. Sizdan so' rayman, ketishingizdan oldin erimga uchto'rt og'iz pand nasihat qilib keting, menga juda ko'p jabru jafo qiladi.

Shu onda ayolning eri eshikdan kirib qolibdi. Mehmon unga qarab:

- Ey do'stim, xudoyi taolo qirq kunlik rizqimni sening dasturxoningga sochgan ekanmi, men ketguncha xotiningga hargiz ozor berma! — debdi.

* * *

Bir davlatmand kishi Mavlono Husayn Koshifiyni uyiga olib borib ziyofat qiladi, oldiga yaxshi taomlar va jumla dan, gipo¹ qo'yib, deydi:

— Bu giponi juda hafসা bilan o'zim tayyorladim, marhamat qilib yeng.

Mavlononing dimog'iga sassiq hid urib, qoiini ovqat dan tortadi.

— Ha, taqsir, nega yemayapsiz, yomon to'ldiribman mi? — desa, Mavlono:

— Yo'q, — deydi, — toidirishga durust toidiribsanu, lekin bo'shatishga kelganda yomon bo'shatibsan.

* * *

Bir kuni uchto'rtta hazilkash ataylab chiqimдор qilish uchun bir xasis boyning uyiga borishibdi. Boy ularning daragini eshitib, g'ulomiga:

— Chiqib ayt, xo'jayin kecha olamdan o'tdilar, uzr, degin, — debdi.

G'ulom chiqib xo'jayinning gapini aytibdi. Hazilkashlar:

— Xo'jayining bizning valine'matimiz edi. Bizning undan qarzimiz juda ko'p. To janozasini o'qib dafn qilmaguncha biz qaytmaymiz, — deyishibdi.

* * *

Bir hazilkash xasisning uyiga mehmon bo'lib borgan ekan, xasis kanizagiga:

¹Gipo — qorinning ichiga palovning masallig'ini solib pishiriladigan taom.

— Mehmonga asaldan qilingan halvoda keltir, — debdi.

— Voy, uyda un, yog' bo'lmasa asal halvo qayerdan bo'ladi? — debdi kanizak.

— Mayli, undoq bo'lsa yumshoqqina o'rin solib ber, bir mazza qilib uxlab olsin, — debdi xasis.

— Hoy, xo'jayin, — debdi mehmon, — o'sha asaldan qilingan halvo va yumshoq to'shakdan ko'ra menga bir burda quruq non bersang yaxshiroq bo'lar edi.

* * *

Bir sartarosh birovning sochini olayotgan ekan, ta sodifan qo'li qaltirab, haligi kishining boshini kesib qo' yibdi.

— Kallamni kesib tashladingku! — deb haligi odam faryod ko'tarsa, sartarosh:

— Jim tur, boshing kesilganda tovushing chiqarmidi, noinsof! — debdi.

* * *

Bir ta'bi nozik kishi do'stiga maktub yozib, ba'zi bir siru asrordan uni ogohlantirmoqchi bo'lgan ekan. Yonida o'tirgan bir betamiz hadeb uning yozayotgan xatiga qaray veribdi. Haligi odam do'stiga: «Agar yonimda falon betamiz va zang'ar o'tirmaganda butun ko'nglimdagi dardu hasra timni senga yozgan bo'lar edim», debdi. Yonidagi betamiz:

— Hoy birodar, men qachon sening maktubingga qara dim? — desa, ta'bi nozik kishi:

— Qaramaganingda seni yomonlaganimni qayerdan hilar eding? — debdi.

* * *

Bir ezma kasal ko'rgani borib, uzoq o'tirib qolibdi va kasaldan:

— Ko'ngling nimani istasa ayt, darhol muhayyo qila man, — deb kerilibdi.

— Ko'nglim shuni istaydiki, — debdi kasal, — o'lsamu sening diydoringni ko'rmasam!

* * *

Bir ezma og'ir bemorning yostig'i boshida uzoq o'tirib, ketayotganida:

— Nima tashvishing bor, ayt, — deb bemordan so'rasa, bemor:

— Seni yana kelishing tashvishidan boshqa tashvishim yo'q, — debdi.

* * *

Bir befarosat kasal ko'rgani borib, bemordan:

— Qanaqa dardga chalinding? — deb so'rabdi.

— Nafasim siqilib, yurak o'ynoqi bo'lib qolganman, — debdi bemor.

— Bo'lmasa tezroq vasiyatingni qila qol, mening otam bilan akam shu darddan o'lib ketishdi. Sening ham tuzalib ketishing dargumon. Bolalaringni chaqirib, mening oldimda vasiyatingni qil, — debdi befarosat.

Kasal bolalarini chaqirib:

— Bolalarim, sizlarga qiladigan vasiyatim shuki, min ba'd bu betamizni mening oldimga kirgizmanglar! — debdi.

* * *

Bir lakalov odobsizlik qilgan ekan, ulug' bir zot unga tanbeh beribdi. Shunda lakalov:

— Loyimni shundoq qorishgan bo'lsa, men nima qi lay? — debdi.

— Loyingniku, durust qorishgan, ammo yaxshilab shib balashmagan, — debdi ulug' zot.

Zamaxshariy⁴ «Rabe'ul abror» degan asarida quyidagi voqeani hikoya qiladi: Husayn binni Vahob va Abulayno bir o'tirishda qordan garov bog'lashadi va qor qidirgani chiqib ketishadi. Shuncha bozorlarni aylanishadi, qor to polmaydi. Quruq qaytgani yuragi dov bermay, anqayib turganida, qo'qqisdan ko'zi aftu basharasi, xulqu atvori sovuq Bakir binni Itob degan odamga tushib qoladi. Abulayno suyunib:

— Seni ko'rib qolganim ayni muddao bo'ldida, yur, bir joyga seni olib boray, — deb uni Ibni Vahobning uyiga boshlab boribdi va o'zi undan oldin kirib:

— Sen mendan yarim pud qor so'ragan eding, men yuz pud topib keldim, — debdi. Keyin Bakirni olib kiribdi. Husaynning ko'zi Bakirga tushishi bilan:

— Qandingni ur, olib kelgan qoring aytganingdan yuz chandon ortiq ekan! — debdi.

Bir shilqim shayx besholtita muridni olib, bir davlat mand kishining uyiga boribdiyu:

— Shu kecha otang tushimga kirdi. Meni hadisa bilan mehmon qildi, — debdi.

Davlatmand kishi darrov hadisa qilib shayxni siylabdi. Bir haftadan keyin yana shayx kelib:

— Otangni tush ko'rdim, guruch so'rayapti, — debdi.

Davlatmand kishi yana guruch pishirib, shayx bilan mu ridlarining qornini to'yg'izibdi. Biror hafta o'tgandan keyin shayx kelib:

⁴ Zamahshariy Abulqosim Mahmud binni Umari Zamahshariy (1075— 1144) o'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lgan.

— Otangni tush ko'rdim, yana go'sht so'rayapti, — debdi. Yana haligi kishi yaxna bilan shayxni mehmon qilibdi. Bir haftadan keyin yana shayx kelib:

— Otangni tush ko'rdim, barra kabob bilan halvoga havasim kelyapti, deb aytdi, — debdi.

Bu gal davlatmand kishi shunday debdi:

— Borib otamga ayt, o'zi kelsin, borimizni baham ko'ra miz. Bo'lmasa bu yolg'onyashig'ing bilan meni xonavayron qiladiganga o'xshaysan!

* * *

Bir hazilkash bir arab bilan hamroh bo'lib ketayotgan ekan, yo'lda arabdan:

— Oting nima? — deb so'rabdi.

— Matar, ya'ni yomg'ir, — debdi arab. Laqabing nima?

— Abulg'ays, ya'ni yomg'irning otasi.

— Otangning oti nima?

— Furot, ya'ni daryo.

— Uning laqabi nima?

— Abulfayz, ya'ni oqar suvning otasi.

— Onangning ismi nima?

— Sahob, ya'ni bulut.

— Laqabi nima?

— Umul bahr, ya'ni daryoning onasi.

— Xudo haqqi, birpas sabr qil, biror qayiqpayiq topay, bo'lmasa sen bilan birga yuraman deb suvga g'arq bo'lib ketishim hech gap emas ekan, — debdi haligi hazilkash.

* * *

Birov bir arab bilan ketayotib unga:

- Isming nima? — deb savol beribdi.
- Borid, ya'ni sovuq, — debdi arab.
- Laqabing nima?
- Abujalid, ya'ni muzning otasi.
- Otangning ismi nima?
- Abusalj, ya'ni qorning otasi.
- Onangning oti nima?
- Zamharir, ya'ni qahraton qish.
- Laqabi nima?

— Umushshito, ya'ni qishning onasi.
— Kasbu koring nima?
— Muz sotaman.
— Qayerga boryapsan?
— Qor qidirib boryapman.
— Azbaroyi xudo, ozgina sabr qil, biror po'stin to pay, bo'lmasa sovuqdan qotib qolishim hech gap emas, — debdi haligi kishi.

* * *

Bir hazilkash G'o'r viloyatiga qarashli qishloqqa borib qolibdi. Qarasa qishloqning shimol tomonida baland bir tog' bo'lib, havo yo'lini to'sib turibdi.

Hazilkash qishloq ahliga:

— Shu tog'ni qishloqlaring ro'parasidan ko'tarib tash lab, sizlarni toza havodan bahramand qilsam nima deysiz lar? — deb so'rabdi.

— Koshki edi, — deyishibdi qishloq ahli, — havo yetishmagani tufayli biz hamisha har xil kasalliklarga chali nib yuramiz.

— Bo'пти, — debdi hazilkash, — faqat bitta shartim bor: bir yil meni boqasizlar, ko'nglim nimani istasa, shuni muhayyo qilasizlar. Tog'ni uzoqroqqa jildirganimdan keyin yo'l xarji sifatida ming dinor pul berasizlar.

G'o'rliklar, bosh ustiga, deb bir yil uni boqishibdi. Bir yildan keyin, qani, va'daga vafo qilmaysizmi, deb uning oldiga kelishibdi.

Hazilkash:

— Boringlar, kimning uyida bir gazdan tortib yuz gaz gacha ipmi, arqonmi bo'lsa barisini yig'ib kelinglar, — debdi.

G'o'rliklar borib bir talay arqon topib kelishibdi. Hazil kashning amri bilan bu arqonlarning uchini bir-biriga bog'lashibdi.

— Endi bu uzun arqon bilan tog'ni o'rab olinglar, — debdi, G'o'rliklar shunday qilishibdi. Undan so'ng arqon ning ikki uchini ushlab, orqasini toqqa berib:

— Qani endi qishloqning erkakayol, yoshqarisini yig'inglar, — debdi.

Hamma yig'ilibdi.

— Mana endi, — debdi haligi kishi, — tog'ning tagiga kirib, bir kuchanish bilan ko'tarib orqamga yuklanglar va men uni uzoqroqqa — biror chuqurga olib borib tashlab kelaman.

— Ovsarmisan?! Biz qanaqa qilib bu ulkan tog'ni ko'tarib orqangga qo'yamiz? — desa, hazilkash shunday debdi:

— Ovsar senlarmi, menmi? Ikkiuch ming odam bo'la turib ko'tarolmagan tog'ni yolg'iz menga ko'tartirmoqchi bo'lyapsizlarmi?

* * *

Jo'hiy Dajla daryosining bo'yiga kelib qarasa, bir to'da ko'r daryodan o'tish taraddudida turgan ekan.

Ha, yo'l bo'lsin? debdi Jo'hiy.

— Suvdan o'tmoqchimiz.

— Men sizlarga yo'l boshchi bo'lsam nima berasizlar?

— Har birimiz o'ntadan yong'oq beramiz, — debdi ko'rlar.

— Bo'lmasa birbirlaringni bellaringdan mahkam ush langlar, men sizlarni qulayroq yerdan o'tkazib qo'yaman.

Ko'rlar turnaqator bo'lib, suvga tushibdi. Suvning oqimi tezroq yerga yetganda ko'rlardan birini suv olib ketibdi. Sheriklari:

— Hoy, yo'l boshchi, sheriklarimizdan birini suv olib ketdiku! — deb dod solayotganida yana boshqasini suv olib ketibdi.

Jo'hiy:

— Hay attang, yigirmata yong'oqdan ayrildim! — debdi.

Bir ozdan so'ng yana uchinchisini suv oqizib ketibdi. Ko'rlar faryod ko'targan ekan, Jo'hiy yana:

— Afsus, o'ttizta yong'oqdan ayrildim, — debdi.

Bu so'zni eshitib, ko'rlarning fig'oni falakka chiqib diyu:

— Ey johil, nima deb valdirayapsan va bizni qanaqa yo'ldan olib boryapsan! Bu ahvolda hammamizni suvga cho'ktirib yuborasanku! — debdi.

— Sizlarga hech nima bo'lgani yo'q. Hamma zarar menga bo'lyapti. Har bir oqib ketgan odam mening o'n dona yong'og'imni olib ketyapti. Men indamay o'tiribmanu nega endi sizlar dodlayapsizlar?! — debdi Jo'hiy.

* * *

Xudodan yomg'ir tilash niyatida bir necha kishi maktab bolalarini birga olib dalaga chiqishibdi. Bir hazilkash:

— Bu bolalarni qayoqqa olib ketyapsizlar? — deb so' rabdi.

— Gunohsiz go'daklarning duosi tezroq mustajob bo'ladi, degan umidda xudoga yolvorgani olib boryapmiz, — deyishibdi. Bunga javoban hazilkash:

— Bolalarning duosini xudo qabul qilganda olamda bitta ham domla qolmas ediku! — debdi.

* * *

Bir tabib bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ikki xil taomni yeb o'tirgan odamni ko'rib:

— Hoy birodar, bu taomlar bir-biri bilan kelisholmay di, — deb luqma tashlabdi.

Ikkinchi kuni haligi odam kasal bo'lib, tabibning oldiga boribdi.

Tabib:

— Kecha bu ovqatlar bir-biri bilan kelisholmaydi, dema ganmidim?
— desa, bemor!

— Aksincha, taqsir. Ikkalasi bir-biri bilan shu darajada kelishib qoldiki, endi meni o'rtadan ko'tarishmoqchi! — debdi.

* * *

Bir hozirjavob kishi moldavlatidan ayrilib qolibdi. Undan:

— Biror narsang qolmadimi? — deb so'rashsa, u:

— Mendaku, hech vaqo yo'g'a, ammo xotinimning ulbuli bor, — debdi.

— Masalan?

— Masalan, ming dinor oltin va besh eshakka yuk bo'la digan mahri mening bo'ynimda! — debdi.

* * *

Jo'hiy joni halqumiga kelib, eshagini sudrar, eshak esa bir qadam ham olg'a yurmas ekan. Bu holni ko'rgan odam lar:

— Hayvon odatda o'z uyiga yugurib borar edi, sening eshaging kaltaklasang ham bormaydiya? — desa, Jo'hiy shunday debdi:

— Ey birodar, bu harom o'lgur uyida suv ham, somon ham, hech vaqo yo'qligini bilib bormayaptida!

* * *

— Onam ikkalamiz juda bilimdon munajjim bo'la miz, — debdi Jo'hiy, — bizning folimiz hamisha to'g'ri chi qadi.

— Nimaga asoslanib bunday da'vo qilyapsan? — deb so'rashsa, shundoq debdi:

— Shunga asoslanibki, agar osmonni bulut qoplasa, men yomg'ir yog'adi, deyman, onam, yo'q, yog'maydi, deydi. Turgan gap, yo yog'adi, yo yog'maydi. Demak, yo uning gapi to'g'ri chiqadi, yo mening gapim.

* * *

Jo'hiydan:

— Biror ishda birov bilan musobaqa o'ynashganmisan? — deb so'rashsa, shundoq debdi:

— Machitdan chiqish masalasida men hamisha hamma mahallako'yni orqada qoldirganman, chunki men doimo hammadan keyin kirib, hammadan oldin chiqamanda.

Sho'x bir yigit o'tirishlarda doim hammani kuldirib yurar ekan. Taqvodor bir odam unga:

— Butun umringni hazilmutoyiba va masxarabozlikda o'tkazding. Bunaqa qilaverma, bo'lmasa qiyomat kuni seni do'zaxda oyog'ingni osmondan qilishadi! — debdi.

— Bu ham masxarabozlikning bir turi bo'ladida, — javob qilibdi yigit.

* * *

Sho'x bir yigit uylanibdi. Ertasiga jo'ralari:

— Xursandmisan, xotining qalay? — deb so'rashsa, u:

— Asti so'ramang. Mast nargisning shoxiga o'xshaydi: qaddu qomati nozik, boshi oq, sochi sariq, — debdi.

* * *

Bir sho'x yigit uylangan ekan, xotini to'rt oydan keyin tug'ib beribdi.
Xotini eridan:

- Bolaning otini nima qo'yamiz? — deb so'rasa, eri:
 - To'qqiz oylik yo'lni to'rt oyda bosib o'tgan bo'lsa
- Uchqur qo'yamizda! — debdi.

* * *

Xunuk bir ayol betob bo'lib qolibdi va eridan:

- O'lib qolsam nima qilasiz? — deb so'rabdi. Eri:
- O'lmay qolsang nima qilaman?! — debdi.

* * *

Bir ayol hazil tariqasida bir sayyohdan:

- Sen jahongashta odamsan, ko'p ellar, elatlarni ko'rgansan. Qani, ayt, bu ko'rganlaringdan qanday tajriba hosil qilding va nimalarni ko'rding? — deb so'rabdi.

— Jahonni kezib chiqargan xulosam shuki, o'lgunimcha biror ayol zoti bilan hamnafas bo'lmaslikka ahd qildim. Sababini hozir hikoya qilib beraman. Bir kuni Xito viloya tida bir rassomning ishxonasiga kirib, devorga osig'liq turgan uch suratga ko'zim tushdi. Umrin bino bo'lib bu darajada go'zal suratni ko'rmagan edim. Birinchi surat, boshini quyi solib, fikru xayol ummoniga g'arq bo'lib o'tirgan bir erkakning surati edi. Ikkinchi surat, bir qo'li bilan soqolini yulib, ikkinchi qo'lida tosh, ko'kragiga urayotgan erkakning surati edi. Uchinchi suratdagi erkak esa mamnuniyat va quvonchini izhor qilish uchun o'yinga tushmoqda edi. Har bir suratning ostiga kattakatta harflar bilan bir satr xat yozilgan.

Fikru xayol ummoniga g'arq bo'lgan birinchi suratning ostiga: «Bu erkak uylansammi, uylanmasammi deb xayol surib o'tiribdi», deb yozilgan.

Soqolini yulib, ko'kragiga tosh bilan urmoqchi bo'lib turgan suratning ostiga: «Bu odam xotin olib, qilgan ishi dan pushaymon yeb turibdi» deb yozilgan.

Xursandligidan o'yinga tushayotgan suratning ostiga: «Bu odam xotinini taloq qilib, o'z erkini qo'lga olgan odam», deb yozilgan edi.

* * *

Shariat peshvolaridan birining juda mahmadona xotini bor ekan. Bir kuni o'sha odam xotinini narvonga chiqayot ganini ko'ribdi va narvonning o'rtasiga borganida:

— Hoy xotin, shuni bilib qo'y: shu yerdan yuqoriga chiqsang ham, pastga tushsang ham, shu joyingda tursang ham, baribir seni uch taloq qilaman! — debdi.

Xotini darhol o'zini narvondan tashlabdi.

— Fahmu farosatingga tasanno, xotinjon, — debdi eri. — Men rivoyat topolmagan shariat masalalariga sen rivoyat topishga qodirsan!

* * *

Bukri bir kampirdan so'rabdilar:

— Xudodan egilgan qomatingni rost qilishini so'raysan mi yoki boshqalarning ham o'zingga o'xshash bukri bo'li shini so'raysanmi?

— Boshqalarning ham men kabi bukri bo'lishini va ular menga qaysi ko'z bilan qaragan bo'lsa, men ham ularga o'sha ko'z bilan qarashni istayman, — debdi.

* * *

Birov besh erdan qolgan bir ayolga uylanibdi. To'satdan oltinchi eri ham kasal bo'lib qolibdi. Xotini kuyunib, erining yostig'i boshida yig'lab:

— Voy begim, meni kimga tashlab ketyapsiz? — desa,

eri: — Yettinchi eringga! — debdi.

* * *

Bir xasisdan:

— Kimni eng dovyurak odam deb bilasan? — deb so'rashsa, u:

— Uyida odamlarning kasirkusur qilib tomoq yeyayotgan tovushini eshitib o'takasi yorilmagan odamni, — deb javob beribdi.

* * *

Bir xasis birovdan:

— Yumshoqko'ngillik va sabrtoqat masalasida qachon boshqalarga o'rnak bo'laman? — deb so'rasa, u:

— Birov noningni ushatganda, sen uning kallasini yormaganingda! — debdi.

* * *

Arablar orasida xasisligi tufayli tillarda doston bo'lgan Shammoma ismli bir kishining oldiga bir kambag'al iltimos bilan kelibdi. Shammoma:

— Avval sen mening bir iltimosimni bajar, undan keyin men nimaiki istasang, bajonidil ijro etarman, — debdi.

— Marhamat, qanaqa iltimos?

— Iltimos shuki, mendan biror narsa tilama.

* * *

Bir xasis o'g'liga shundoq nasihat qilibdi:

— Bolaginam, kumush tanganing qanoti bor, qo'ldan chiqarding, uchadiketadi. Oltin tanganing isitmasi baland bo'ladi, sarf qilsang, o'ladiqoladi.

* * *

Bir tekintomoq yig'inga borsa, hamma asal yeb o'tirgan ekan. Ko'zi asalga tushishi bilanoq «Assalomu alaykum!» deyish o'rniga:

— Asal alaykum! — deb yuboribdi.

* * *

Bir tekintomoqdan:

— Ikki karra ikki necha bo'ladi? — deb so'rasa, u:

— To'rtta non, — debdi.

* * *

Ishi yurishmay qolgan besholtita odam suhbat qurib o'tirgan ekan. Bir tekintomoq bular bir nima yeb o'tirib di, deb gumon qilib, yugurib suhbatdoshlari oldiga kelibdi. O'tirganlar unga:

— Hoy birodar, biz hammamiz ochmiz, biror narsa yesakmi, deb o'tiribmiz. Sen nima istaysan? — deb so'rashsa, u:

— Sizlarga yoqadigan taomlarning barisi menga bo'la veradi, — deb javob beribdi.

* * *

Tekintomoq bir so'fi o'z muridlari bilan bir yerga ke tayotgan ekan, munday qarasa bir dehqon semiz sigirning ustiga bir qop bug'doy, bir mesh dumba yog' ortib, qayoqqadir olib ketyapti. So'fi, sevinchi ichiga sig'may, chapak chalib o'yinga tushibdi.

Undan:

— O'zi nima gap? — deb so'rashsa, u:

— O'z oyog'i bilan yurib kelayotgan halim oshni birinchi ko'rishim!
— debdi.

* * *

Bir kun Horun ar-Rashid qozi Abu Yusufdan:

— Yog'li halvo yaxshimi, bodomli halvo? — deb so'rasa, qozi:

— Men qozi bo'laman. O'z ko'zim bilan ko'rmaguncha hukm chiqarmayman, — debdi.

Ho/unning amri bilan darhol ikkala halvoni ham olib kelibdilar. Qozi goh unisidan tatirkan, goh bunisidan:

Horun:

— Ha, nega indamaysan, chiqar hukmingni! — desa, qozi:

— Yo amir almo'minin, umrim bino bo'lib huzurimga da'vo qilib kelgan bunaqa ikki ziyrak dushmanni sira ko'rmaganman. Biri haqida endi hukm chiqaraman desam, ikkinchisi hujjatini og'zimga tutadi va men nima deyishimni bilmay qolaman! — debdi.

* * *

Bir qishloqi arab Bag'dod shahriga kelibdi. Bunday qara sa, nonvoy do'konida kishi suqi kiradigan nonlarni taxlab qo'yishgan ekan. Bechora arab nonning hididan ko'ngli sust ketib, nonvoy oldiga kelibdida:

— Hoy, birodar, necha pul bersam, qornim to'yguncha non berasan? — deb so'rabdi. Nowoy, esa bitta yeydi, ik kita yeydi, uchtdan ortiq yeya olmasa kerak, deb yarim dinor berib to'yguningcha yegin, debdi.

Arab yarim dinorni berib suv bo'yiga o'tiribdi; Nowoy non keltiribdi, arab suvga botirib uraveribdi. Nowoy razm solib qarasa, arab haliberi to'yadiganga o'xshamaydi. Nowoy, fig'oni chiqib:

— Hoy birodar, yarim dinorlik non yeyman degan eding, bu zaylda butun nowoyxonamdagi nonimni yeb bitiradi ganga o'xshaysanku, — desa, arab:

— Muncha sabrsizlik qilaverma, men shu ariqdagi suv tamom bo'lguncha yeyman, xolos, — debdi.

* * *

Bir o'g'ri bir uydan kattakon tugunni o'g'irlab, endi chiqib ketayotgan ekan, yo'lovchilarga ro'para kelib qolib di. Shoshilib qolganidan tugunni eshik orqasiga bekitib, supurgini olibdiyu eshik oldini supura boshlabdi. Odamlar:

- Nima qilyapsan? — deb so'rashsa, o'g'ri:
- Bir ulug' kishi olamdan o'tdi, shunga eshik oldini supurib, tozalayapman, — debdi.
- Nega yig'isig'i tovushi eshitilmayapti? — deb so'rashsa, o'g'ri:
- Uyoqbuyoqni yig'ishtirib bo'lsak, keyin tovush chi qaramiz, — debdi.

* * *

Bir uyga o'g'ri tushibdi. Qarasa, hech vaqo yo'q. Qo'qqisidan ko'zi uyning bir burchagida to'kib qo'yilgan ohakka tushib, uni un gumon qilibdiyu, sallasini uy o'rtasiga yozib, ohakni unga to'kmoqchi bo'libdi. Uy egasi bir chek kada qarab turgan ekan, darrov sallani olib qo'yibdi. O'g'ri qarasa, un deb o'ylagan narsasi ohak ekan. Sallani olay desa, salla yo'q. Tarvuzi qo'ltig'idan tushib, endi chiqib ketayotgan ekan, uy egasi: «O'g'rini ushlanglar!» — deb dod solibdi. O'g'ri orqasiga o'girilib:

- Hoy noinsof, o'g'ri senmi yoki menmi?! — debdi.

* * *

Abbosi Davs degan kishi arablar orasida gadoylikda mashhur ekan. Bir qashshoq uning oldiga kelib:

- Shu hunaringni menga o'rgat, shoyad shu yo'l bilan qashshoqlikdan qutulsam, — deb iltimos qilibdi. Abbas shundoq debdi:
- Qog'ozdan panja yasab ko'kragingga yopishtirib, qirq kun yalang'och ofiobda yotgin. Keyin soddalarning machitiga borib, uch kun yotgin. To'rtinchi kuni, azon payti, Xazrati Xizrni ko'rdim, u kishi menga

nazar qilib, muborak pan jalarini ko'kragimga qo'ydilar, deb faryod solgin. Odamlar yugurib oldingga keladi. Shunda ko'kragingdagi panja izini ko'rib, senga murid bo'ladi va sen qashshoqlik balosidan qutulasan!

* * *

Bir kambag'al bir xasisning eshigiga borib, «shayn alloh», debdi. Xasis ichkaridan turib:

— Ertaga kel, mehmon chaqirganman, yaxshilab qor ningni to'yg'izaman, — debdi.

— Hoy xo'jayin, ertaga yetish uchun bugun biror burda non berib tur! — debdi.

* * *

Ustboshi juldur, yupun gadoyga birov:

— Nima uchun falonchi boyning eshigiga bormaysan? Rahmi kelib senga to'np'o'n berishi mumkin, — debdi. Ga doy u boyning nechog'li xasis ekanligini bilarkan, shunday debdi:

— Xudo haqqi, uning oldiga borsam, egnimdagi juldu rimdan ham ajralib, po'st tashlagan ilonday bo'lib chiqa man.

* * *

Ustboshi yupun bir gadoy bir boyga:

— Boy buva, eshigingda o'lib qolsam nima qilarding? — desa, boy:

— Kafanlab ko'mardim, — debdi.

— Mayli, tirikligimda ko'ylak kiydirib qo'ya qol, o'lganimdan keyin kafansiz ko'msang ham roziman, — debdi gadoy.

Husayn Boyqaro shox Shujoga bo'lgan talabini eslatish niyatida Sherozga odam yubormoqchi bo'libdi. Davlat ar boblari bilan maslahatlashib, bu vazifani ham gapdon va ham va'zxonlikda mashhur

bo'lgan, minbarga chiqqanida odamlarni yig'latib, cho'ntaklarini qoqib oladigan mavlono Arshadga topshirmoqchi bo'libdi. Uni chaqirtirib:

— Sherozga, shox Shujo huzuriga odam yuborish zaru rati tug'ilib qoldi. Mulozimlar seni tavsiya qilishyapti. Lekin sening bu tilanchilik xulqing barcha yaxshi xislatlaringni yo'qqa chiqaradi. Agar uyoqqa borib tilanchilik qilmaslikka va'da bersang, qancha pul kerak bo'lsa o'z xazinamdan beraman! — debdi.

— Uyoqqa borib va'zxonlik qilsam, kamida yigirma ming dinor tushirar edim. Mayli, sening ko'nglingga qarab, etak tutmasdan borib kelishga qasam ichaman, — debdi mavlono Arshad.

Husayn Boyqaro suyunib, xazinasidan yigirma ming dinor naqd sanab berishni va yo'l xarajati deb yana besh ming dinor qo'shib berishni buyuradi.

Arshad Sherozga borib ishni bitkazadi. Qaytish oldidan shoh Shujo va davlat arboblari: «Ko'pdan beri va'zxonli gingiz haqida ta'rif-tavsifingizni eshitib, bizlarga ham o'sha kun muyassar bo'larmikin, deb orzu qilib yurar edik. Mana endi o'z oyog'ingiz bilan kelib qoldingiz. Bir va'zxonlik qilib bizni xursand etsangiz nechuk bo'larkin?» — deyishibdi.

Mavlono Arshad Shoh Shujoning so'zlaridan iyib ke tibdi va namoz jumadan keyin jome machitida va'zxonlik qilishga va'da beribdi. Juma kuni jome machiti odamga liq to'libdi. Shoh Shujo ham Sherozning a'yonashroflari bilan hozir bo'libdi. Mavlono Arshad minbarga chiqib, hammani yig'latib va'zxonlik qilganidan so'ng yig'ilganlar nihoyat darajada ta'sirlanib ko'ziga yosh olibdi. Arshad bu holni ko'rgandan keyin eski kasali qo'zg'ab, o'zini tutolmabdi va xaloyiqqa qarab:

— Ey azizlar, ilgari minbarga chiqqanimda gohgoh ta barruk odamlardan sadaqa oladigan odatim bor edi. Ammo bu yerga kelayotganimda sadaqa so'ramaslikka qasam ichgan edim. Men sadaqa olmaslikka qasam ichgan bo'lsam, sizlar sadaqa bermaslikka qasam ichmagan bo'lsalaring kerak ku! — debdi.

Yig'lab o'tirgan odamlar birdan kulib yuborishibdi va mavlono Arshadning etagi pulga to'libdi.

* * *

Bir g'ilay kishining oldida xo'rozni bog'lab qo'yishgan ekan. Birov undan:

— G'ilay odamlarning ko'ziga bitta narsa ikkita bo'lib ko'rinadi deyishadi, rostmi? — deb so'rabdi.

— Bo'lmagan gap! — debdi g'ilay, — shundoq bo'lganda mana bu ikki xo'roz ko'zimga to'rtta bo'lib ko'rinmasmidi?!

Bir g'ilay kishi g'ilay tabibning oldiga borib:

— Bir kishi ko'zimga ikkita bo'lib ko'rinadi. Bir iloj qilib meni bu balodan qutqar, aks holda ahvolim xarob bo'ladi, — desa, tabib boshini ko'tarib:

— To'rtovingiz ham shu kasalga muhtalomisizlar? — debdi.

— Voydod! — debdi g'ilay, — boshqa tabibga bormasam bo'lmaydi. Mening ko'zimga ikkita bo'lib ko'ringan narsa buning ko'ziga to'rtta bo'lib ko'rinarkan!

* * *

Bir g'ilay bilan bir ko'r xarid qilish niyatida maslahat lashib bozorga boribdi. G'ilay ko'rga:

— Sening ko'zing bitta, meniki ikkita. Shunday bo'lgach, xaridni men qila qolay, — debdi.

— Ikki qalbaki dirhamdan ko'ra bir haqiqiy dirham afzalligini bilmaysanmi? — debdi ko'r.

Sayyor ismli ko'r arablar orasida eng mashhur ekan. Bir kuni ko'chada unga tegishib:

— Hoy, Sayyor, xudodan tila, ko'zing evaziga senga biror nima bersin, — debdi.

— So'radim, berdi, — debdi ko'r.

— Nima berdi?

— Senga o'xshagan ahmoqlarning basharasini ko'r maslikni!

* * *

Birov bir yig'inda shundoq debdi:

— Kimningki ikki ko'zi ko'r bo'lsa, yarim erkak hisob lanadi, kimningki chiroyli xotini bo'lmasa, yarim erkak hisoblanadi, kimki daryoda suzishni bilmasa, yarim erkak hisoblanadi.

O'sha o'tirishda xotini ham bo'lmagan, suzishni ham bilmagan bir ko'r o'tirgan ekan, bu so'zlarni eshitib, faryod ko'taribdi:

— Hoy noinsof, bu qandoq gap bo'ldi! Men bechorani yarim erkak degan ro'yxatdan ham o'chirib, butkul «no mard»ga chiqarib qo'ydingku!

* * *

Bir basralik kishi shundoq hikoya qiladi:

— Basrada safar qilganimda kechasi bir qishloqqa kirib bordim. Qishloqning o'rtasida yelkasida to'la suv ko'za, qo'lida chiroq, jadallab borayotgan bir ko'rni ko'rib, hay ron qoldim va yo'lini to'sib:

— Hoy ko'r, sening uchunku, tun bilan kunning farqi yo'q. Chiroq ko'tarib yurganing nimasi? — desam, u:

— Senga o'xshagan biror qalbi ko'r yelkasi bilan turtib, ko'zamni sindirib qo'ymasligi uchun desa bo'ladimi!

Bir ko'rning xunukkina xotini bor ekan. Xotini eriga bir kun:

— Qani endi ko'zing bo'lsayu, mening husnu jamo limni ko'rsang ekan, — desa, eri:

— Og'zingni yum. Husnu jamoling bo'lganda menga o'xshagan ko'rga tegarmiding! — debdi.

* * *

Bir kar tegirmonga bir qop un olib borayotgan ekan. Suv bo'yiga kelib endi bug'doyni olib o'tmoqchi bo'la yotganida uzoqdan otliq bir kishi ko'rinib qolibdi. O'z o'zicha: «Bu otliq kelsa, avval salom berib, keyin ariqning chuqurligini, undan keyin bug'doy necha qadoqligini so'rasa kerak», — deb o'ylabdi.

Otliq yetib kelishi bilan:

— Hoy birodar, bu ariqning chuqurligi qancha? — deb so'rabdi.

— Alaykum assalom va rahmatullo va barakotu hu, — debdi kar.

Otliq kulib:

— Kallang uzilsin! — debdi.

— Bo'yingacha, — debdi kar.

— Og'zi burning qonga to'lsin, — desa, kar:

— Sakson qadoq, — debdi.

* * *

Bir karning xotini, qizi va xizmatkori ham kar ekan. Bir kuni eri kelib xotiniga:

— Juda och qoldim, yeydigan biror narsang bo'lsa olib kel, — debdi.

Xotini:

— Muncha mehribon bo'lib ketibsiz, dadasi. Men pax talik kamzul olib bersangiz ham xursand bo'lar edim. Siz esa atlas kamzul olib kelibsiz. Endi qandoq xursand bo'l mayin. Xudodan qaytsin bu mehribonligingiz, — debdi.

Eri ovqat tayyor ekan, deb o'ylabdi. Xotin qizining oldiga borib:

— Bilasanmi, dadang nima qipti. Atlas kamzul olib tikuvchiga berib kelibdi, — debdi.

— Umlaringga Xudo baraka bersin, — debdi qizi. — Meni qulog'i kemtik g'ulomga bermochi bo'lsalaring, ixtiyor o'zlaringda, — shu so'zlardan keyin quvonchi ichiga sig'may kanizakning oldiga kelibdi.

— Xabaring bormi, boshimga davlat qushi qo'ndi: meni go'zal bir boyvachchaga berishyapti. Bugun kechasi to'y bo'ladi... — desa, kanizak:

— Ozodlik haqidagi xabarni olib kelgan tillaringdan o'rgilay. Ilohim joying jannatda bo'lsin, meni qullik balo sidan qutqargan otaonangni Xudo do'zax o'tidan ozod qilsin, — debdi.

* * *

Besholtita qariya o'tirishar, bir to'da bola ular oldida shovqinsuron ko'tarib o'ynasharkan. Chollardan biri bola larga qarab:

— Uyat degan gapni bilasizlarmiyo'qmi? Nega buncha baqirasizlar? — desa, bolalardan biri:

— Sizlar yoshliklaringda Xudodan uyalsalaring edi, hozir bizni sizning salobatingiz bosib, sho'xlik qilmagan bo'lar dik, — debdi.

* * *

Bir bola davlat arboblarning biri oldida odobsizlik qi libdi. Bu xabarni amakisiga yetkazishibdi. Amakisi bolani urmoqchi bo'lgan ekan, bola:

— Amaki, menku, aqlsizlikdan bu ishni qilib qo'yib man. Nahotki, siz aqlu hushingiz joyida bo'la turib shu ishni qilsangiz? — debdi.

* * *

A'mash ismli ko'falik bir ulug' zot uyidan kulib chi qibdi. Shogirdlari:

- Domla, nimadan kulyapsiz? — deb so'rashsa, u shunday debdi:
- Tashqari chiqayotganimda to'rt yoshli qizcham, yo'limni to'sib, bir dirham pul so'radi. Pulim yo'q desam, onasiga qarab: «Dunyoda boshqa er qurib ketuvdimi? Bu gadoyning qo'lga nechuk tushganingga hayronman», desa boiadi?

* * *

Abulasr degan kishi yoshligidan arablar orasida hozir javoblikda mashhur ekan. Bolaligida otasi bir kuni kalla olib kelgin, deb bozorga yuborgan ekan. Abulasr kallani sotib olib, bir chekkaga o'tiribdiyu go'shtpo'st va miyasini yeb, qoq suyakni non orasiga qo'yib, otasi oldiga keltirib qo'yibdi. Otasi non ichiga qarasa qoq suyakdan boshqa narsa yo'q.

- Bolam, buning ko'zlari qani? — deb so'rasa, o'g'li:
- Dadajon, bu qo'y ko'r ekan, — debdi.
- Qulog'i qani, bolam?
- Kar ekan, otajon.
- Tili qani?
- Tili yo'q ekan.
- Bu hamku mayli, lekin miyasi nima bo'ldi?
- Kar, ko'r, gung bo'lishidan oldin qo'ylarga mual limlik qilib, miyasini qo'zilarga yegizib qo'ygan ekan.
- Bu kallani olib borib kallapazga ber. Men kalla yemayman!
- Mendan qaytarib olmaydi. Kallapaz bu kallani barcha aybi bilan menga sotgan edi, — debdi Abulasr.

* * *

Bir kuni Eron podshohi Xusrav oshpaz g'ulomining non yopayotganiga ko'zi tushib, razm solib qarasa, tandir oldida terga pishgan g'ulom jichcha xamirdan uzib terini artibdi, keyin yana xamirga qo'shib, non

yasayveribdi. Xusrav indamay qo'ya qolibdi. Ertasiga oshpaz g'ulomni chaqirib:

— Qani ayt, taomlardan qaysi biri lazmatliroq? — deb so'rabdi.

G'ulom ancha ziyrak ekan, kosaning ostida nimkosa bor ligini fahmlab:

— Dasturxonga keltirib qo'yilgan taomning qanaqa tay yorlanganiga ko'zing tushmagani, — debdi g'ulom.

* * *

Boshqa bir podshoh ham oshpaz g'ulomini aynan shundoq qilganini ko'rib, jazo berish niyatida uni huzuriga chaqirtiribdi va undan:

— Qani ayt, ovqatlardan qaysi biri yaxshiroq? — deb so'rabdi.

G'ulom maqsad nimaligini fahmlab, shunday debdi.

— Ovqatlarning ichida eng yaxshisi peshona teri to'kib pishirilgan ovqat, — debdi.

* * *

Bir yasovulning otini o'g'irlab ketishibdi. Birov:

— Ayb o'zingda, otni durust ehtiyot qilmagansan, — desa, boshqa birovi:

— Ayb sayisingda, sayisxonaning eshigini ochiq qoldirgan, — deb xizmatkorini gunohkor qilibdi. Shunda otning egasi:

— Ayb o'g'rida bo'lmasa, demak, otning o'zida ekan, — debdi.

* * *

Jabru zulm jonidan o'tgan bir dehqon podshoh oldiga arzga boribdi. Podshoh uning arzdodiga quloq solmabdi va boshqa bir ish bilan mashg'ul bo'libdi. Dehqon yana arz hol qilibdi, yana shoh iltifot ko'rsatmabdi. Uchinchi maro taba og'iz rostlaganida podshohning g'azabi kelibdi va dehqonga qarab:

— Hoy xira pashsha, ko'tar bosh og'rig'ingni! — debdi.

Shunda dehqon:

— Shohim, bosh sen bo'lsang, og'rig'ini qayoqqa olib ketay, — debdi.

* * *

Laysning o'g'li Ya'qub kambag'algina odam ekan. Saltanat taxtiga o'tirgandan keyin sajistonlik bir boyning molmulkini tortib olib, o'zini bir burda nonga zor qilib qo'yibdi. Bir kuni o'sha odam Ya'qubning huzuriga kelibdi. Ya'qub undan:

— Bugun ahvoling nechuk? — deb so'rasa, haligi odam.

— Kecha sening ahvoling qanday bo'lsa, bugun mening ahvolim shunday, — debdi.

— Kecha mening ahvolim qanday edi? — desa, sajistonlik kishi:

— Kecha sening ahvoling mening bugungi ahvolimga o'xshar edi! — debdi.

* * *

Bog'dod xalifasi umrida shahar yuzini ko'rmagan va birovning suhbatida boimagan bir qishloqi arab bilan ov qatlanib o'tirgan ekan, birdan ko'zi qishloqi arabning luq masidagi qilga tushib qolibdi va unga:

— Mehmon, qoiingdagi luqmangdan qilni olib tash la, — debdi.

Arab qo'lidagi luqmani dasturxonga qo'yib, qo'lini ar tarkan, shunday debdi:

— Mehmonning luqmasidagi qilni ko'radigan darajada sinchiklab qaraydigan odamning dasturxonidan taom yeb bo'ladimi?!

* * *

Bir kuni bir xalifa barra kabob yemoqchi bo'lib endi dasturxonga qo'l uzatayotgan ekan, qishloqdan bir arab kelib qolibdi. Xalifa uni

dasturxonga taklif qilibdi. Arab, qorni och bo'lsa kerak, zo'r ishtaha bilan barra kabobni uraveribdi. Xalifa hazil tariqasida:

— Nima balo, bu qo'zichoqning otasi seni suzganmidi, birpasda go'shtini yamlab yutding? — desa, arab:

— O'zingchi, bu qo'zichoqqa rahmu shafqat bilan ter milib qarab turishingdan onasining sutini emib katta bo'lgan ga o'xshaysan! — debdi.

* * *

Bir xo'ja bilan bir fuqaro urishib qolibdi. Xo'ja:

— Vo Muhammado! — deb faryod ko'taribdi. Fuqaro esa:

— Hoy odamlar! — deb dod solibdi.

Odamlar taajjublanib:

— Vo Muhammado, deganing nimasi? — deb so'rasalar, fuqaro shundoq debdi:

— U o'z bobosi Muhammadni yordamga chaqirib: «Vo Muhammado!» dedi. Men o'z avlodim, odamni yordamga chaqirib «Hoy odamlar!» deb qichqirdim. U Muhammad avlodi ekanini isbotlash uchun qancha ter to'kish kerak. Mening odam farzandi ekanligimga hech kimning shubhasi yo'q.

* * *

Bir mo'tabar zot ko'chada borayotgan ekan, bir odam tomdan yiqilib, uning bo'yniga urilibdi va bo'yni lat yeb ancha vaqt ko'rpato'shak qilib yotibdi. O'sha zamonning kazokazolaridan bir nechtasi kasal ko'rgani kelibdi va undan:

— Maxdum, ahvol qalay? — deb so'rasa, mo'tabar zot shundoq debdi:

— Bundan yomoni bo'lmasa kerak. Nahotki, birov tomdan yiqilsayu mening bo'ynim sinsa!

* * *

Bir shariat peshvosidan:

— Dalada, biror buloq boshida tahorat olish zarurati tug'ilib qolsa, qaysi tomonga qarash kerak? — deb so'rasalar, u:

— Kiyimlaringizni yechgan tomonga qarashlaring ke rak! — debdi.

* * *

Luqmoni hakim qopqora kishi ekan. Birov uni tani masdan g'ulomlikka olib, birmuncha vaqt eshigida xizmat qildiribdi. Keyin xizmatkori ilmu hikmatdan xabardor odamga o'xshaganini payqab, imtihon tarzida, bir kun:

— Qo'yni so'yib, eng yaxshi joyini menga keltir, — debdi.

Luqmon qo'yni so'yib, yurak va tilini xo'jasining oldiga keltirib qo'yibdi. Boshqa bir kun:

— Qo'yni so'yib, eng yomon joyini pishirib kel, — debdi xo'jayin.

Luqmon yana bir qo'yni so'yib, tili bilan yuragini xo'jasining oldiga keltirib qo'yibdi.

— Bu nima qilig'ing? — deb xo'jasi so'rasa, Luqmoni hakim shundoq debdi:

— Ey xo'jam, agar pok bo'lsa, til bilan yurakdan toza narsa yo'q, agar nopok bo'lsa, til bilan yurakdan iflos narsa yo'q!

* * *

Bir hakim uylangandan keyin shunday degan ekan:

— Biz bo'ydoq bo'lgan chog'larda uylanganlar gung edilar, ya'ni shu ishni qilma, deb bizga nasihat qilmadilar.

Endi biz uylangandan keyin bo'ydoqlar kar bo'lib qoldilar!

* * *

Bir hakim:

— Uylanish quduqqa tushib ketish demakdir, — debdi.

— Quduqdan chiqishning iloji bormi? — deb so'rashsa, hakim:

— Quduqning og'ziga xarsang tosh bostirishmasa qutulsa bo'ladi, — debdi.

— Xarsang toshing nimasi? — deb so'rashsa, hakim yana:

— Xotin tuqqan har bir farzand o'sha quduqning og'ziga bosilgan xarsang tosh bo'ladi, — deb javob beribdi.

* * *

Bir hakimdan:

— Qaysi taom yaxshiroq va lazziqliroq, — deb so'rashsa, hakim:

— Qorning och bo'lsa, har qanaqa taom ham totli va lazziqli bo'ladi, — debdi.

Bir hazilkash tabibdan:

— Bo'sa issiqlikmi, sovuqlik? — deb so'rasa, tabib:

— Bunisiniku bilmayman, ammo ko'pi ko'ngilni ayni tishini bilaman! — debdi.

* * *

Hozirjavoblik da'vosini qilib yuradigan bir xasis Abdu rahmon Jomiy oldida hazil tarzida:

— Uch aqcham bor, qandoq qilib shu pulga bir nima olib to'yguncha yesamu yana qolganini uch aqchaga sotib pulimni undirsam deb o'ylab o'tiribman, — debdi.

Bunga javoban Jomiy shundoq debdi:

— Qushxonaga borib, uch aqcha bersang, bitta qorin beradi, ichidagini yeb, qolganini yana uch aqchaga sotasam qo'lasanda!

* * *

Sulton Mahmud G'aznaviy bir kun to'rt eshikli uyda o'tirgan ekan, Aburayhon Beruniyni chaqirib:

— Qani, ayt, men bu eshiklarning qaysi biridan chiqib ketaman? — debdi. — Agar sening aytganingni aksi bo'lsa, shuni bilginki, boshingdan ayrilasan!

Hakim nima qilishini bilmay, hayron qolibdi. Sulton Mahmudning rahmshafqatsizligini bilgani uchun uning talabini rad etishga jur'at etolmabdi. Chornochor ustur lobni ko'tarib, chuqur mulohaza bilan, uyoqbuyoqni tek shirgan bo'libdi. Keyin qog'ozga bir nimalarni yozib buklabdi va sulton Mahmudning yostig'i ostiga qo'yibdi. Sulton Mahmud shimoli sharq tomondan eshik ochishni buyuribdi va o'sha teshikdan chiqib ketibdi. Keyin haligi qog'ozni so'rab, ochib o'qibdi. Qog'ozda: «Sulton hech qaysi eshikdan chiqmaydi, balki devorni shimoli sharq tomonidan teshib chiqib ketadi», deb yozilgan ekan. Sulton Mahmud Beruniyning donishmandligiga qoyil qolibdi va o'sha majlisda unga uch yuz ming dirham mukofot va zarbof to'n hadya etibdi.

* * *

Hirotning shayxulislomi mavlono Sayfiddin Ahmadning qulog'iga Abdurahmon Jomiy Sulton Husayn Mirzoga yaqin bir kishining uyiga kasal ko'rgani boribdi va uning dasturxonidan taom yebdi, degan xabar yetgach, shayxul islom:

— Abdurahmon Jomiy o'sha odamning dasturxonidan ovqat yegan bo'lsa, biz islom dinidan qo'limizni yuv dik! — debdi.

Bu so'zni eshitgan Jomiy:

— Shayxulislom o'sha bo'lsa, biz islomdan qo'l yuv dik! — debdi.

* * *

G'o'r shahrining aftu basharasi qopqora, gavdasi yo'g'on va hammayog'ini tuk bosgan qozisi muhim ish bilan birmuncha vaqt Hirotda qolib ketibdi. Bir kuni Jomiyning oldiga kelgan ekan, Jomiy undan:

— Nechuk buncha uzoq yurib qolding? — deb so'rasa, qozi:

— Bizning o'lkada to'ng'iz ko'payib qolibdi, shuning uchun borgim kelmayapti, — debdi.

— Shu kunlari ancha kamayib qolgan bo'lsa kerak, — debdi Jomiy.

* * *

Bir davlatmand kishi hayotligida o'ziga sag'ana qurdirib di. Sag'ana bitgandan keyin ustani chaqirib:

— Bu imoratning mukammal bo'lishi uchun yana nima darkor? — desa, usta:

— Faqat sizning muborak jasadingiz! — debdi.

* * *

Fazl binni Rabe degan kishi shundoq hikoya qiladi:

— Xalifaning huzurida o'tirgan edim. Birov: «Buni hech kimga ko'rsatmasdan o'qib chiqing», deb qo'limga bir qog'ozni tutqazdi. Yonimda o'qimishli bir arab o'tirgan edi. Men maktubni o'qiyotganimda arab ko'z qirini tashladi.

— Nega qarayapsan? Birovning xatini o'qish odobdan emasligini nahot bilmasang? — dedim.

— Bilasanmi, — dedi arab, — hozir qulog'imga: «Kim ki Ma'munning birodari nomiga yozilgan maktubga ijozat siz qarasa, do'zaxga tushadi», degan hadis kirdi. Mening otam o'lgan. Istaymanki, tezroq do'zaxga tushib, otam bechora qay ahvolda yotganini o'z ko'zim bilan ko'rsam...

* * *

Tovusi Yamaniy shundoq hikoya qiladi: Hajjoj Yusuf oldida bir odamni ko'rdim. U Hajjojga dadil muomala qilar, uning savollariga mardona javob qaytarar edi. Hajjoj Yaman viloyatida hokimlik qilayotgan birodarining ahvolini undan so'rabdi:

— Qani, ayt, sizlarning hokimlaring — mening biroda rim Muhammad binni Yusufning ahvoli nechuk?

— O'zi semiz, qaddu basti filday, rangro'yi xo'roz day! — debdi.

— Men sendan uning rangro'yini emas, adlinsofini so'rayapman, — debdi Hajjoj.

— Berahm, qonxo'r, zolim, fosiq, badaxloq!

— Nega bo'lmasa undan kattarog'iga arz qilib zulmidan qutulmaysizlar?

— Undan kattarog'ida undan beshbattar bo'lsachi?

— Meni taniysanmi?

— Albatta taniyman. Sen Hajjoj binni Yusufsan, u sening birodaring bo'ladi.

— Nechuk qo'rqmasdannetmasdan bu gaplarni menga dangal aytyapsan?

— Haq gapni gapiradigan odam nohaqdan qo'rqmaydi...

* * *

Xusrav Parvez fuqaroga zulm qilgan bir amaldorini liuzuriga chaqirtiribdi. Amaldor tezda kelavermabdi. Shunda Parvez o'sha elning hokimiga:

— Kelishga gavgasi og'irlik qilayotgan bo'lsa, yengilroq a'zosi — kallasini yubora qol, — deb xat yozibdi.

* * *

Bir kuni Kisro ziyofat beribdi. Qarindoshlaridan bir odamshavanda zot oltin qadahni o'g'irlab, sekin cho'ntagiga solibdi. Kisro buni ko'rib o'tirgan bo'lsa ham o'zini ko'rma ganga solibdi. O'tirishning pirovardida soqiy:

— Hech kim o'tirgan joyidan jilmasin! Bitta oltin qadah yo'qolibdi. Hammaning cho'ntagini ko'rib chiqish kerak, — debdi.

— Hojati yo'q, — debdi Kisro, — olgan odam qaytib bermaydi, ko'rgan odam ko'rdim, demaydi.

Birmuncha vaqtdan so'ng Kisro o'sha qadah o'g'risini ko'rib qolibdi. Haligi kishi yangi to'n, yangi sarpo kiygan, beliga qilich taqib, olifta bo'lib olgan ekan. Kisro ramziy ishorat bilan:

— Bu yangi to'n ham o'shandanmi? — deb so'rabdi.

Haligi odam etagini ko'tarib:

— Bu ko'ylakishton bilan yangi etik ham o'shandan, — debdi.

Otabolani hokimning oldiga olib kelib kaltaklabdilar. Awal otani yuz kaltak uribdilar. Ota «miq» etmabdi. Keyin o'g'ilni kaltaklay boshlabdilar. O'g'lining boshiga birinchi kaltak tushishi bilanoq ota dodfaryod ko'taribdi. Hokim:

— Yuz kaltak urgandaku, «miq» etmagan eding, nega endi o'g'lingni bir tayoq urganda muncha lo'lilik qilyap san? — desa, ota shundoq debdi:

— U kaltaklar boshimga tushganda sabrbardosh qilgan edim, endi jigarim boshiga tushganda toqatim toq bo'ldi!

* * *

Bir boy hakimga:

— Yuz dinor oltinim bor, shuni senga bermoqchiman, nima deysan? — deb so'rabdi.

— Bersang, — debdi hakim, — senga yaxshi, bermasang menga yaxshi. Senga yaxshiligi shuki, shu vosita bilan menga marhamat qilgan bo'lasan. Bermasang menga yaxshi bo'lishi shuki, sening minnatingdan qutulaman!

* * *

Bir podshoh holjoniga qo'ymasdan bir hakimga sharob ichkizibdi. Hakim ichgandan keyin aljib qolibdi. Hushyor bo'lganidan so'ng, pastbaland gaplarni aytding, deb uni kalaka qilibdi.

— U gaplarni men emas, meni ichishga majbur qilgan odam gapirtirdi, — debdi hakim.

* * *

Arablar orasida gapga chechanligi bilan mashhur bo'lgan Abulaynoga bag'dodlik bir ulug' zot tegishmoqchi bo'lib:

— Biz doimo sening g'iybatingni qilamiz, — debdi.

— Shu gapni aytmaganingda sening ahmoqligingni bil mas edim, — deb javob beribdi Abulayno.

So'xtasi sovuq bir kishi Xudoga yolvorib:

— Ey Xudo, meni do'zaxingdan qutqarib, jannatingni nasib et, — debdi.

Bu so'zni eshitgan bir hazilkash:

— Shu soxtu sumbating bilan nega endi do'zaxdan hazar qilib, do'zax o'tini unga ravo ko'rmaysan? — debdi.

* * *

Bir kuni Hajjoj binni Yusuf o'z mulozimlari bilan cho'lda aylanib yurgan ekan, ko'zi bir cho'pon qulga tushibdi. Mulozimlariga:

— Sizlar shu yerda tura turinglar, men o'sha qui bilan suhbatlashmoqchiman, — debdi va otini cho'pon tomon suribdi; u bilan salomalik qilib bo'lgach:

— Menga qara, Hajjoj binni Yusuf qanaqa hokim? — deb so'rabdi.

— Asti so'ramang, — debdi qui, — olam bino bo'lib bunaqa zolim hokimni ko'rganim yo'q. Shu qadar zolim, shu qadar berahm, shu qadar

qonxo'rki, na xudodan qo'rqadi va na bandadan. Yaqinda bu la'natining zulmidan qutulishga ishonchimiz komil!

— Meni taniysanmi? — deb so'rabdi Hajjoj.

— Yo'q, — debdi qui.

— Men o'sha Hajjoj bo'laman!

Qui qo'rqqanidan rangi ro'yi oqarib, qotib qolibdi.

— Sen kimning quli bo'lasan va oting nima? — deb so'rabdi Hajjoj.

— Otim Vardon. Oli Ali Savrning qullaridan bo'laman. Quyonchiq kasaliga muhtalo bo'lganman. Oyda uch marta tutadi. Shu kunlarda o'sha kasalim xuruj qilgan kunlar, — debdi.

* * *

Basralik bir arab bir boyga qui sotgan ekan. Boy uni meshkobchi qilib tayinlabdi. Qui ertadankechgacha suv tashirkan. Bir kuni arab qo'shaloq meshni ko'tarib, zo'rg'a borayotgan qulini ko'rib qoladi.

— Ha, ahvoting nechuk? — deb so'rabdi eski xo'jayin.

— Asti so'rama, — debdi qui. — Suv tashiganim tashigan. Na quduqdagi suv tamom bo'ladi va na bularning chanqog'i bosiladi!

* * *

Bir davlatmand qullaridan birini meshkobchi qilib qo'ygan ekan. Qui kechayu kunduz faqat suv tashirkan. Bir kuni xo'jasi qulidan:

— O'z ahvoting va mening ahvolimga qandoq baho be rasan? — deb so'rabdi.

— Bu qabila bilan bu xonadonda biz ikkalamizdan baxt sizroq odam bo'lmasa kerak, deb o'ylayman, — debdi qui.

— Nechuk? — deb so'rasa xo'jasi, qui shundoq javob beribdi:

— Sen hamisha bularning noni tashvishini tortasan, men suvi tashvishini. Ikkalamizning zahmatimiz orqasida bular rohatfarog'atda yashaydi va yana hech kim bizdan minnat dor bo'lmaydi.

Xo'jasi kulib: — Xudo haqqi, rost aytasan! — debdi.

* * *

Bir boy uzum, anor, anjir, xurmo olib kelgin, deb qulini bozorga yuboribdi. Ancha vaqtdan keyin qui faqat uzumning o'zini olib kelibdi. Boy:

— Bir ishni buyurganda odam degan birato'la bir nech tasini bitkazib kelmaydimi?! Shuncha yo'qolib ketib, bitta ishni bitkazib kelasanmi? — deb qulni urishib beribdi. Uchto'rt kundan keyin boy kasal bo'lib qolibdi, quliga:

— Bor, tabibni olib kel, — debdi.

Qui tezda qaytib kelibdi va bir necha kishini ergashtirib kelibdi. Boy:

— Bular kimlar? — deb so'rasa, qui shunday javob beribdi:

— Urishib bergan o'sha kun sen menga bir ishni buyur sam, bir nechtasini bajarib, tezda orqangga qayt, deb aytgan eding. Hozir borib seni davolash uchun tabib olib keldim, tuzalib ketsang senga ashula aytib, musiqa chalib beradi, deb hoflzni, o'lsang g'assollik qiladi, deb yuvg'uvchini, o'lganda marsiya o'qiydi, deb otinni, janoza o'qishi kerak bo'ladi, deb domlaimomni, go'r qaziydi deb go'rkovni, qabr ustida xatmi qur'on qiladi, deb qorini olib keldim va bularning hammasini bir yo'la bajardim!

* * *

Bir soddadan:

— Sen kattami, akang? — deb so'ragan ekanlar.

— Akam katta, ammo bir yildan keyin unga yetib ola man, — debdi.

* * *

Bir sodda birov bilan sheriklikka qui sotib olgan ekan. Quldan bir gunoh sodir bo'libdi. Shunda sodda kaltak olib qulni urmoqchi bo'lgan ekan, sherigi:

— Nima qilmoqchisan? — deb so'rabdi.

— O'z tegishimni kaltaklamoqchiman, — debdi.

* * *

Bir soddaning bo'yniga qovog'ari qo'nibdi. O'rtoqlari bundan uni ogohlantiribdi. Sodda arini yengi bilan urib haydabdi, keyin o'rtoqlaridan:

— Durustroq qaranglar, chaqmadimikin? — deb iltimos qilibdi.

* * *

Bir sodda lashkar orasiga kirib qolibdi. Yarim kechada lashkarga hujum bo'libdi va olag'ovur ko'tarilibdi. Sodda dirdir qaltirab, otning oldiga yugurib boribdi va otni ji lovlamoqchi bo'lib, hadeganda dumini kallasidan ajratol mabdi. Tizgin qo'lida, otning sag'risi va dumini ushlar, ensasi qotib:

— Faraz qilaylikki, bir kechada kallang o'sib, pesho nang kengayibdi, ammo gajaging shunchalik o'sganiga aqlim hech bovar qilmaydi, — debdi.

* * *

Ikki sodda yo'lga chiqqan ekan, ulardan biri:

— Kel, yo'lni qisqartirish uchun uyoqbuyoqdan gaplashib boraylik, — debdi.

— Qani endi xudo menga mingta qo'y ato qilsayu, men bu qo'ylarning juni, suti va qo'zilaridan boyib ketib, hasadchilarni dog'da qoldirsam, — debdi biri.

— Qani endi xudoyi taolo menga ham mingta bo'ri ato qilsayu, men bu bo'rilar sening qo'ylaring ichiga qo'yib yuborsam va bo'rilar dushmanlarni dog'da qoldirib, qo'yla ringni bitta qoldirmay jig'ildonidan o'tkazsa, — debdi ikkinchisi.

— Xudodan qo'rqmaysanmi, — debdi qo'ylarning egasi, — nahot shuncha bo'rini mening qo'ylarim orasiga qo'yib yuborib, halol nasibamdan meni mahrum qilsang? Do'stlik va hamdamlikning oqibati shumi?!

— Shuncha sut, shuncha qo'ziyu, echkini, qani kel, baham ko'raylik, demasdan, yolg'iz o'zing yegani Xudodan uyalmaysanmi? — debdi bo'rilarining egasi.

— Mendan gina qilishga sening haqqing yo'q! — debdi qo'ylarning egasi. — Men bir ayolmand odamman, buning ustiga, yana shuncha kambag'al urug'aymog'im borki, ularni aytib ado qilib bo'lmaydi.

— Xo'sh, nega sening ayolmandligingni ko'zda tutib, ichiqoraliging bilan murosayi madora qilishim kerak?

Unisi u debdi, bunisi bu debdi, xullasi kalom, o'rtada janjal boshlanib, bir-birini o'lguday savalashibdi va holdan toyib yo'lning chetiga chiqib o'tirishibdi. Shu payt uzoqdan bir sanoch asalni eshakka yuklab shaharga borayotgan bir chol ko'rinib qolibdi. Bular:

— Kel, shu mo'ysafid oramizga tushib, qozilik qilsin, — deb o'rinlaridan turishibdi va salomalikdan so'ng bo'lgan voqeani bir boshdan aytib berishibdi.

Choi bularning so'zini eshitib bo'lgach, belidan picho g'ini chiqaradida:

— Agar ikkovlaring ahmoq bo'lmasalaring mening qonim xuddi mana shu asalday tuproqqa qorishib ketsin, — deb bir pichoq urish bilan sanochni ikkiga bo'libdi va bir asal tuproqqa qorishib ketibdi.

* * *

Umrida shahar ko'rmagan bir sodda Hirotga tushibdi. Chorsuga borganida qandqursga to'la halvogarning do'koni ni ko'rib, og'zi ochilib qolibdi va o'zini tiya olmay, shirin likka chang solibdi. Halvogar uning bilagidan ushlamoqchi bo'lganida sodda chaqqonlik qilib halvoni og'ziga solibdiyu:

— Ana na senga, na menga! — debdi.

* * *

Bag'dodlik Bahlul bir kuni Basraga borgan ekan, unga basralik devonalarni sanab chiq, deyishibdi.

— Devonalarni sanab chiqish qiyin, chunki ular juda ko'p, ammo sogiarni sanab chiq, desalaring bu boshqa gap, chunki ularning soni ma'lum, — debdi.

* * *

Bir devona po'stinini teskari kiyib yurgan ekan. Unga:

— Nega junini ichiga qilib kiymading po'stiningni? — desalar, u:

— Men xudoning xohishiga amal qildim, junini ichka riga qilib kiyish ma'qul bo'lganda, xudo barcha hayvonlar ning junini ichkariga qaratgan bo'lar edi! — debdi.

* * *

Bir sodda shahzoda shaharga chiqqan ekan, bunday qarasa, shahar qal'asi devorida laylak o'tirganmish. Darhol xonso lorni chaqirtirib, unga ellik kaltak urdiribdi. Buning sababini so'rashga hech kim jur'at etolmabdi. Nihoyat, xonsolor ning o'zi:

— Shahzodam, nechuk meni sababsiz jazolaysiz? — deb so'rabdi.

— Mening tuyam shahar qal'asining ustida nima qilib yuribdi? Yiqilib ketsa oyog'i sinadiku, degan gap nahot xayolingga kelmasa? — debdi shahzoda.

— Shahzodam, Xudo haqqi, bu tuya emas, laylak, undan keyin men oxursolor¹ emas, xonsolorman! — debdi.

* * *

Xon bir arab bilan hamtovoq bo'lib qolibdi. Dasturxonga halim osh keltirib qo'yishibdi. Arab tovoqqa razm solib qarasa, hamma yog' xalifa oldida. Arab darrov barmog'i bilan ariqcha qilib, yog'ni o'z tomoniga haydabdi. Xalifa: «Qayiqdagilarni suvga g'arq qilish niyatida uni teshib qo'ydingmi», degan oyatni o'qibdi. Arab ham bu oyatga javoban darrov: «Bahramand bo'lsin, tirilsin, deb suvni qaqrab yotgan yer tomonga surdik», degan oyatni o'qib beribdi.

* * *

Iskandar Zulqarnayn Eron shohi Doroga qarshi urush moqchi bo'lganida unga:

«Shuni esda tutingki, Doroning sakson ming askari bor», deb yozib Iskandarni qo'rqitmoqchi bo'lishibdi. Iskandar bunga javoban shunday debdi:

— Qassob qo'yning ko'pligidan hech qachon vahimaga tushmaydi.

* * *

Habashiston shohi Yaman hokimi Sayfi Ziyazanni Yamandan chiqarib haydaganda u Anushervondan panoh istab yordam so'raydi. Anushervon yordam tariqasida unga

¹Shohning otiga mutasaddi kishi.

uch yuz ming askar yubormoqchi bo'ladi. Shunda Sayfi Ziyazan Anushervonga shunday yozadi:

«Ey Kisro, uch yuz ming askar ellik ming kishiga nechuk qarshilik ko'rsata oladi?»

Kisro bunga shunday javob beradi:

«... Bir dunyo o'tinni alanga oldirish uchun ozgina o't kifoya...»

* * *

Qaysari Rumning ikki azim dushmani bor ekan. Bir kuni ikkala dushman o'zaro urushmoqchi ekan, degan xabar kelibdi. Qaysari Rum poytaxtining tadbirkorlari shundoq maslahat berishibdi:

— Ikkala dushman poytaxtlarini tashlab, bir-biriga qarshi urush bilan band. Ayni shu mahalda biz fursatdan foydalanib, ularga qarshi hujum qilsak, ikkalasining ham poytaxtini bosib olishimiz mumkin.

Bunga Qaysar shundoq javob beribdi:

— Siz o'ylagan bu tadbir noo'rin, chunki bizning maq sadimizni anglab qolishsa, bir-biri bilan ittifoq tuzib, bizni oradan ko'tarib tashlashi mumkin. Men hozir sizlarga bir misol keltiraman, quloq solinglar, — debdi. Keyin Qaysarning buyrug'iga binoan ikkita o'rgatilgan ovchi itni keltiradilar va ikkalasini urishtiradilar. Itlar bir-birini g'ajib tashlaydi. So'ng Qaysarning amri bilan bularga uzoqdan tulkini ro'baro' qilishadi. Itlar urishishni qo'yib, o'sha tulkiga tashlanishadi. Hamma Qaysarning donoligiga tan beradi.

* * *

O'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lmish Za maxshariy «Rabeul abror» degan kitobida shundoq deb yozadi:

«Eron Xuzistonining sultoni bo'lmish Harmazonni Umar binni Alxattob zamonida gunohkor qilib Madinaga olib kelishadi va o'ldirishga hukm qilishadi.

— Men tashnaman, avval menga suv beringlar, keyin o'ldiringlar, — deydi Harmazon.

Darrov bir kosa suv keltirib qo'liga tutqazadilar. Kosa ni ushlagan qo'li dag'dag' qaltiraydi.

— Nega suvni ichmayapsan? — deb so'raganda, Harmazon:

— Ichishimdan oldin o'ldirib qo'ymagin deb qo'rqyap man, — deydi.

— Xotirjam bo'l, suvni ichmaguningcha seni o'ldirmay man, — deydi ibni Hattob.

Harmazon shu on kosadagi suvni yerga to'kib yuboradi.

— Qani, o'ldiringlar buni! — deydi ibni Hattob.

— Iye, suvni ichmaguningcha seni o'ldirmayman, degan edingku! — deydi Harmazon.

— Ha, durust, men suvni ichmaguningcha o'ldirmayman, dedim!

— Men hanuz suvni ichganim yo'q! — deydi Harmazon.

— Men seni o'ldirmoqchi edim, ammo sen hiyla ishlatib o'limdan o'zingni qutqarding, bor endi, seni Xudo o'ldir sin, — deydi va shu tarzda Harmazon o'zini o'limdan qut qaradi».

* * *

Kisro Anushervonga: «Fuqarongdan falon kishining moli shu qadar ko'pki, sening xazinangda ularning yuzdan biri ham yo'q», deb yozadi. Bunga Kisro shundoq javob qay taradi:

«Xudoga ming qatla shukurki, bizning soyani davlati mizda fuqaromiz bizdan boyroq bo'libdi». Keyin o'sha ma'lumot bergan odamni toptirib adabini beradi.

* * *

Bir kuni Ja'far binni Yahyo binni Xolid Barmoqiy cho'lda Horun arRashid yonida otlıq ketayotgan ekan. To'satdan oltin orılgan bir tuya karvonıga ro'baro' kelib qolibdi.

Horun arRashid:

— Bu xazına qayoqdan paydo bo'ldi? — deb so'rabdi.

— Bu janoblarıga hadya. Buni Ali binni Iso sizga Xuro son viloyatidan yubordi.

Horun arRashid Ja'far binni Yahyoning birodari Fazl binni Yahyoni bekor qilib, uning o'rnıga Ali binni Isoni Xuroson viloyatıga hokim qilib tayınlagan edi.

Horun arRashid Ja'farga qarab ta'naomuz:

— Bu mollar sening akang hokimlik qilib yurgan dam larda qayerda edi? — desa, Ja'far:

— Shahriyori olam, bu mollar egalarining cho'ntagida edi! — debdi.

* * *

Bir kuni sulton Mahmudning fe'li juda aynibdi. Mulo zimlar Talhakni topib:

— Agar sultonni kuldırsang, besh ming dinor mukofot beramiz, — deyishibdi.

Talhak ko'nib sultonning huzurıga boribdi. Sulton haram saroy ro'parasida, yerning chetida qovog'ini solib o'tırar, odamlar belkurak bilan yer ag'darar ekan.

— Shahriyori olam, bu yerga nima ektirmoqchısız? — debdi Talhak.

G'azabi qaynab turgan sulton Mahmud:

— Eshakning... — debdi.

— Hay attang, haram juda yaqın ekan, kanizaklar yerdan bosh ko'targani qo'yisharmikin? — debdi. Shunda sulton Mahmud xaxolab kulib yuboribdi.

* * *

Arabning mashhur shoiri Da'wali Jazoyi shundoq hikoya qiladi:

Kunlardan bir kun bir guruh shoiru fozillar to'plan dikku, Said binni Horunning uyiga borib, ertalabdan kechagacha o'tirdik. Ochlikdan ko'ngillarimiz ozib, ta'bi miz xira bo'ldi. Nihoyat mezbun mo'ysafid qarolini chaqirib:

— Yeydigan narsang bo'lsa olib kelgin, — dedi. Qarol ancha yo'qolib ketib, keyin bir isqirt dasturxonni olib chiqib oldimizga yozdi. Unga bolta bilan ham sindirib bo'l maydigan bitta quruq non bilan labi singan kosada chala pishgan, kallasiz xo'rozni olib chiqib qo'ydi. Said kallasiz xo'rozni ko'rib, uzoq o'ylanib qoldi, keyin boshini ko'tarib qarolga:

— Bu xo'rozning kallasini qani? — dedi.

— Kallasini kesib tashladim.

— Men hatto oyog'ini kesib tashlagan odamni ham yoqtirmayman, nahot sen kallasini kesib tashlasang! Bu qilmishingning hosiylati yomon. Xo'rozning kallasida xislat ko'p.

Awalo, uning tovushini eshitib, odamlar namozga bo'radilar, uxlaganlar uyg'onadilar, saharxezlar toatibodat bilan mashg'ul bo'ladilar.

Ikkinchidan, uning toji podshohlarning tojiga o'xshaydi, shu toj tufayli xo'roz boshqa qushlardan ajralib turadi.

Uchinchidan, ikkala ko'zi bilan farishtalarni ko'radi, may ichuvchilar rangli sharobni uning ko'ziga o'xshatadilar.

To'rtinchidan, uning miyasi buyrak kasaliga davo va uning suyagi eng lazzatli hisoblanadi. Agar xo'jayinim buni yemaydi, deb tashlagan bo'lsang, juda katta xato qilibsang. O'zim yemagan taqdirda ham bolachaqalarim yeyishi mumkin. Axir bu mehmonlar ertalabdan beri tuz totmay o'tiri shibdi, hech bo'lmasa bularni xo'rozning kallasini bilan siylar edim.

Keyin g'azab bilan qaroliga:

— Bor, qayerga tashlagan bo'lsang topib kel, bo'lmasa o'zingning kallangni uzib tashlayman! — dedi.

— Xudo haqqi, qayerga tashlaganimni bilmayman.

— Qayerga tashlaganingni men bilaman, sen uni jig'il doningga urgansan!

— Xudo ursin, men yeganim yo'q, azbaroyi Xudo ko'rganim yo'q!

Said jahli chiqib o'rnidan turib qari qarolga yopishgan edi, oyog'i kosaga tegib, sho'rva dasturxonga to'kildi. Uyning bir chekkasida mushuk poylab turgan ekan, darrov xo'rozga chang soldi, olib qochdi. Biz ham yoqalashayotgan

xo'jayin bilan qarolni tashlab chiqib ketdik.

* * *

Bir xasisga birov:

— Uzugingni menga ber, qachon ko'zim tushsa, seni eslab yuraman va shu vosita bilan sira unutmayman, — debdi.

Xasis bunga javoban shundoq debdi:

— Meni eslaydigan bo'lsang, falonchidan uzuk so'ragan edim, bermadi, degan so'zni zinhor unutma.

* * *

Bir nechta kishi xasis boyning oldiga borib shundoq debdi:

— Sen davlatmand oiladan bo'lasan, bizlar esa kambag'al oiladan bo'lamiz. Sening dargohingga biz faqirlar katta umid bilan keldik. Senga ikkita iltimosimiz bor, nou mid qaytarmassan dergan umiddamiz.

— Qo'limdan kelganicha sizlarga ko'mak berishga tayyor man. Xo'sh, qanaqa iltimos ekan? — deb so'rabdi haligi xasis boy.

— Birinchi iltimosimiz shuki, mana bu odamga qarz tariqasida ming dinor berib turasan. Biz hammamiz guvoh miz.

— Ikkinchi iltimoslaring qanaqa?

— Ikkinchi iltimosimiz shuki, bu qarzni qaytarib berish uchun bir yil muhlat berasan.

— Ey azizlar, — debdi boy, — ikki hojatdan bittasini chiqargan odam xayrli ish qilgan bo'ladimiyo'qmi?

— Albatta!

— Men ikki iltimosdan birini — qarz muhlatini cho'zish ni qabul qildim. Sizlar mendan bir yilga cho'zishimni iltimos qildilaring, men esa sizlarni yuzxotirlaringni qilib o'n yil muhlat beraman, mayli, o'n yildan keyin to'lasin. Endi boringlar, birinchi iltimosni boshqa birovdan qilinglar, chunki men bundan ortiq lutfu marhamat ko'rsatishga ojizman.

* * *

Ash'ab binni Jobir degan kishi tamagirlikda mashhur ekan. Undan:

— Sen qay darajada tamagirsan? — deb so'rashsa, shundoq javob beribdi:

— Tamam shu darajadaki, qaysi uydan tutun chiqsa, menga ovqat pishiryapti, deb o'ylayman. Shu umidda o'rnimdan turaman va qoqso'q nonlarni yig'ib, qachon meni sho'rvaga taklif qilsa, shu nonlarni to'g'rab yeyman, deb kutib o'tiraman. Agar umidim puchga chiqsayu, hech kim meni sho'rvaga taklif etmasa, nochor bir kosa suv keltirib, o'sha nonlarni ivitib yeyman.

Agar sopolfurushlikdan o'tib qolsam va birovni kosa yo lagan sotib olayotganini ko'rsam, bu kosa va yo laganda menga ovqat pishirib bersa kerak, deb o'ylayman.

Misgarlik rastasidan o'tib ketayotgan bo'lsamu mabodo misgarning mis lagan yo mis kosa yasayotganini ko'rsam biron kun zarf egasi menga shu idishda ovqat yubormasmi kin, degan umidda uning oldiga boraman va lagan bilan kosani kattaroq qilib yasa, deb iltimos qilaman.

Ko'chada ketayotgan bo'lsam, tomdanmi, darchadanmi qo'shni qo'shniga biror narsa tashlasa, mening etagimga tushishi mumkin, deb etagimni ko'tarib yuraman.

Agar ko'chadan kelin olib ketmoqchi boisalar, men adashib kelinni menikiga olib kirmasmikinlar deb darrov hovlimni supuribsidirib, suv sepib, eshikni ochib o'tiraman.

* * *

Ash'abdan, umringda o'zingdan tamagirroq odamni ko'rganmisan, deb so'rashsa, shundoq javob beribdi:

- Balli, tamagirchilikda xotinimdan o'tadigani yo'q.
- Nechuk bu xulosaga kelding? — deyishsa, shundoq debdi:
- Shundan bildimki, bir kun menga:
- Ey Ash'ab, sen biron narsani tama qilsang bo'ladi miyo'qmi, deb, shubhaga tushasan, ammo men murodim hosil bo'lishiga hamisha aminman! — dedi.

* * *

Bir kun bir gadoy Abdumalik Marvondan bir nima so'ragan ekan, u:

- Xudodan so'ra, — debdi.
- Xudodan so'ragan edim, sening huzuringga yubordi, — debdi gadoy. Shunda Abdumalik kulib, gadoyni xursand qilgan ekan.

* * *

Hirotdonishmandlaridan boimish mavlono Pirshams bir kuni kichkina o'g'li Muhammadga shundoq debdi:

- Bolam, va'zxonlik qilgim kelyapti, chunki men sha hardagi va'zxonlardan notiqroq va donoroqman, bu sohada mendan o'tadigani yo'q.

Juma kuni, namoz jumadan keyin va'z aytaman, deb hammaga xabar beribdi. Hirotning yoshu qari — hammasi yig'ilibdi. Mavlono Pirshams shuncha odamni ko'rgandan keyin ularning salobati bosadiyu, minbarda uzoq to'xtab qoladi. Shuncha qilsa ham hech narsa xayoliga kelmaydi. Oxiri noiloj:

— Ey azizlar, o'zlaringga ma'lumki, men donishmand va notiqlikda mumtozman, lekin minbarga chiqishim bilan butun biladiganlarim xotiramdan ko'tarildi.

Shu chog' uning o'g'ilchasi Muhammad o'rnidan turib:

— Dadajon, va'zniku, esdan chiqaribsiz, minbardan tushishni ham unutdingizmi? — debdi.

* * *

Azhari Jammaz arablar orasida soddalik va haftafahm likda nom chiqargan va uning haqida ko'p latifalar to'qilgan ekan. Masalan, bir kuni o'nta tuyani haydab borayotgan ekan, uchto'rt chaqirim yo'l bosgandan keyin charchab, tuyalardan biriga minib oladiyu, qolganini sanasa, to'qqizta chiqadi.

— O'nta tuyam bor edi, bittasi nima bo'ldi? — deb tuyadan tushib atrofni qidiradi, tuya yo'q. Qaytib kelib sanasa, yana o'nta chiqadi. Suyunib tuyalarni oldiga solib, yana yo'lda davom etadi. Biroz yurgandan keyin yana charchab, tuyaga minib oladi va qolganini sanaydi, yana to'qqizta chiqadi. Yana tuyadan tushib chor atrofni qidiradi, tuyadan darak yo'q. Demak, tuyaga minsam bitta kamayarkan, piyoda yursam tuyam yo'qolmas ekan, deb axiri piyoda ketibdi.

* * *

Bog'dod xalifalaridan birining zamonida burni sassiq bir odam payg'ambarlik da'vo qilibdi. Uni xalifa huzuriga olib kelibdilar.

Xalifa unga:

- Qani, gapir! — desa, shunday debdi:
- Jabroil har uch kunda mening oldimga kelib turadi.
- Qanaqa mo'jiza ko'rsata olasan? — debdi xalifa.
- Mening dimog'imdan mushk hidi anqiydi, — debdi.

Xalifaning unga rahmi kelib:

— Bu bechoraning dimog'i sasib ketibdi. Buni mening oshxonai xosimga olib boringlar. Kunda unga semiz tovuq dan tayyorlangan no'xat sho'rva va xushbo'y sharbatlardan berib turinglar, — debdi.

O'n kundan keyin haligini chaqirib:

- Ha, darvish, ahvoling nechuk? — deb so'rabdi.
- Podshohi olamning davlatlaridan ahvolim yaxshi, — debdi darvish.
- Hali ham Jabroil oldingga kelib turibdimi?
- Ha, kelyapti, lekin ilgari har uch kunda bir marotaba kelar edi, hozir kunda uch mahal kelyapti.
- Qanaqa xabar olib kelyapti?
- Endi joyingni topibsan, aslo bu yerdan jilma, bu naqa joy hech qayerda yo'q deyapti.